

# ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI

3

1-qism

*Umumiy o'rta ta'lif maktablarining  
3-sinfi uchun darslik*

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
nashriga tavsiya etgan*

**Yangi nashr**



Toshkent – 2022

УО'К 811.512.133(075.3)  
KBK 81.2ya72  
O 58

**Tuzuvchilar:**

Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qur'onov,  
Shokir Tursun, Zeboxon Ro'zmetova

**Xalqaro ekspert:**

Lannuzzi Susan

**Taqrizchilar:**

- B. Mengliyev** – filologiya fanlari doktori, professor.  
**M. Shodiyeva** – Qashqadaryo viloyati XTXQTMOHM mакtabgacha,  
boshlang'ich va maxsus ta'lif kafedrasi mudiri.  
**S. Abdurahmonova** – Nukus shahridagi 38-maktab boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi.  
**K. Egamqulova** – Namangan viloyati Mingbuloq tumanidagi  
15-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi.  
**N. Paxritdinova** – Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi  
67-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

**SHARTLI BELGILAR:**



– o'qing




– qoida bilan tanishing



– savollarga javob bering




– qiziqarli mashg'ulot



– o'quvchi daftariga yozing



– partadoshingiz bilan bajaring



– audiomatnni tinglang



– rasmga qarang



– topshiriqni bajaring



– quvnoq musobaqa



– dars tugadi

Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: 3-sinfi uchun darslik /  
K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2022. – 144 b.

*UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi  
bilan hamkorlikda tayyorlandi.*

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari  
hisobidan chop etildi.*


*Original maket va dizayn konsepsiysi  
Respublika ta'lif markazi tomonidan ishlandi.*

ISBN 978-9943-7810-9-2

© Respublika ta'lif markazi, 2022



# MUNDARIJA



Mustaqillik  
maydoni


5



Jamoat transporti

15

G'aroyib bolalar



Antarktida – muz sultanati

31

O'zbekistonning  
o'ziga xos tabiatи



38

Dunyo okeanlari



Baraka daryosi


44



53

Salomatlik garovi

62



Vitaminlar

69



Tabiatni asraymiz

77



Virus nima?

85



Dangasalik – yomon illat

94

Tomorqa

102



Jamg'arma pullarim

111

Yetti xazina

121



131

Qizil sayyora



## MUSTAQILLIK MAYDONI



Rasmlarga qarang. O'ylab ko'ring-chi, ularda qayer aks etgan? Siz bu joylarni bilasizmi?



E



1. Rasmdagi joylarni tanidingizmi? Ular nima deb ataladi?
2. Rasmdagi haykal yoki binolarning nomini bilasizmi?
3. Sizningcha, ularning qaysi biri eng chiroyli? Nima uchun?
4. Siz me'mor bo'lganingizda, ularning qayerini o'zgartirgan bo'lardingiz?
5. Siz bu joyga borganmisiz? Agar borgan bo'lsangiz, qachon borgansiz? Kim bilan borgansiz? Nimalar esingizda qolgan?
6. Agar bormagan bo'lsangiz, borishni istaysizmi? Qachon va kim bilan borgan bo'lardingiz?



Quyidagi nomlar qaysi rasmdagi inshoot nomi ekanini ayting.

Mustaqillik va ezgulik monumenti

Vazirlar Mahkamasi binosi

Senat binosi

Ezgulik arkasi

Metroning “Mustaqillik maydoni” bekati



1. Yuqorida berilgan rasmlardan qaysi biri sizga ko‘proq yoqdi? Nima uchun? Savolga yozma javob bering.



Mustaqillik maydoni haqidagi audiomatnni tinglang.

1. Mustaqillik maydoni qayerda joylashgan?
2. Mustaqillik maydoni yaqinidan qanday kanal oqib o‘tadi?
3. Bu yer qachondan “Mustaqillik maydoni” deb nomlana boshlagan?
4. Mustaqillik maydonidagi arka nima deb ataladi? Uning peshtoqida nima tasvirlangan?
5. Mustaqillik monumentini tasvirlab bering. U nimani ifodalaydi?
6. Baxtiyor ona haykali qachon o‘rnatilgan?
7. Mustaqillik maydoni yaqinida yana qanday maydon bor?
8. Maydon to‘rida qanday haykal bor?
9. Mangu olov nima uchun yoqilgan?



QR kod orqali Google xaritaga kirib, Mustaqillik maydonining joylashuvi, binolar rasmi bilan tanishing. Qaysi bino qanday joylashganiga, monumentlarning o‘rniga diqqat qiling, ularning nomini ayting.



## Tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘yib, matnni o‘qing.

**Qo‘yish uchun so‘zlar:** peshtoq, xaritasi, vazirligi, Toshkent, Mah-kamasi, laylak, bekti, yam-yashil.

Sarvar yozda bobosi bilan \_\_\_\_\_ dagi Mustaqil-lik maydoniga bordi. Buning uchun ular metroga tushib, “Mustaqillik maydoni” \_\_\_\_\_ dan chiqishdi. Sarvar maydon oldidagi favvoralarni ko‘rib quvondi. Ulardan otilayotgan suv zarralari billurday yarqirardi. Favvoralar yonidan o‘tib, biroz tepega ko‘tarilganda Mustaqillik arkasi ko‘rindi. Arka uzun bo‘lib, ustunlar va \_\_\_\_\_ dan iborat ekan. Uning tepasida osmonga ko‘tarilayotgan uchta \_\_\_\_\_ tasvirlangan. Arkaning o‘rtasidan kirganda uzun yo‘lak bor ekan. Yo‘lakning ikki tomonida \_\_\_\_\_ qarag‘aylar yashnab turibdi.



Yo‘lak oxirida Baxtiyor ona haykali va toshdan yasalgan Yer shari bor ekan. Yer sharining markaziga O‘zbekiston \_\_\_\_\_ tushirilgandi. Bu joydan chap tomonda Oliy Majlis Senati binosi joylashgan ekan. Uning yonidagi oynavand bino esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar \_\_\_\_\_ binosi. Bu binoning qarshisida yana bir favvara va Moliya \_\_\_\_\_ binosi bor ekan.

Sarvarga Mustaqillik maydonining kengligi, yam-yashilligi va favvoralarining ko‘pligi yoqdi.



She'rni ifodali o'qing.



## ONA YURT

Osmonida oftob, oy,  
Boshiga qo'ngan humoy.  
Dunyoda eng go'zal joy –  
O'zbekiston, ona yurt.  
Tinchliksevar eli bor,  
Elining xush fe'li bor,  
Asaldayin tili bor,  
O'zbekiston, ona yurt.  
Hozir yoshmiz – g'o'ramiz,  
O'sib, kuchga to'lamiz,  
Senga qanot bo'lamiz,  
O'zbekiston, ona yurt.

*Dilshod Rajab*





**Birinchi ustunda berilgan so‘zlarning ma’nodoshini ikkinchi ustundan topib ayting.**

oftob

mamlakat

yurt

xarakter

el

quyosh

xush

yaxshi

fe'l

xalq



1. Shoir nima uchun O‘zbekistonni “dunyoda eng go‘zal joy” deyapti?
2. She’rda aytishicha, o‘zbeklar qanday xalq?
3. Shoir: “Hozir yoshmiz – g‘o‘ramiz”, deganda kimlarni g‘o‘raga o‘xshatyapti?
4. Bolalar nega g‘o‘raga o‘xhatilgan?
5. Siz ham ulg‘ayib, O‘zbekistonga “qanot bo‘lishni” xohlaysizmi? Nima uchun?
6. Vatanga “qanot bo‘lish” uchun nimalar qilish kerak deb o‘ylaysiz?
7. She’rni yod oling.



2. Siz uchun eng go‘zal joy qayer? U joy haqida 4–5 ta gap yozing. Yozgan gaplaringizda u joy qayerda ekani, u joyga qachon borganingiz, u joyda nimalar borligi haqida ma’lumot bering.





## Matnni o'qing.

# VATAN

### 1-qism

Qadim-qadim zamonda bir podsho yashagan ekan. U gullarni yaxshi ko'rар, dunyoning qaysi burchagida chiroyli gul bor deb eshitsa, darhol ko'chatidan oldirib kelib, gulzoriga o'tqazar ekan. Gulzorining kattaligi ming tanobdan ham ko'p ekan. U yerdagi ariqlardan zilol suvlar shildirab oqib yotarkan. Podsho gulni qancha sevsа, qushlarni ham shuncha yaxshi ko'rarkan. Bog'iga olamdagи barcha go'zal qushlardan keltirilgan ekan. Bu bog' bamisolи jannatdek bo'lib, zilol suvlarning shildirab oqishi, qiyg'os ochilgan gullarning shabboda-da mayin tebranishi, sayroqi qushlarning yoqimli ovozi bog'ning fayz-tarovatini oshirkан...

Podshoning bir suyukli xotini bo'lib, uni Malika deb atasharkan. Malika faqat qush go'shti yerkan, yeganda ham shu poyonsiz gulzordagi qushlarning go'shtidan yerkan. Semizidan tanlab, har kuni bittadan so'yib turisharkan. Navbat bir qushchaga kelibdi. U do'mboqqina



bo'lib semirgan ekan, o'ziyam g'oyat go'zal, patlari-yu qanotlari oltindek tovlanib turarkan. Jallod o'tkir pichog'ini bo'g'ziga olib borgan-da, go'zal qushcha tilga kirib:

– Shahanshohga arzim bor! – deb qichqiribdi. Qushchaning to'satdan inson tilida gapirishi jallodni hayron qoldiribdi va bo'lgan voqeani darhol podshoga yetkazibdi. Qushchani podshoning huzuriga olib borishibdi.

– Ayt arzingni! – debdi podsho.

– Shahanshoh, – deb gap boshlabdi qushcha, – bizlar odamlar uchun yaratilganmiz. Goh husnimiz bilan ko'zlarini quvontiramiz, goh chiroyli ovozimiz bilan dillarini yayratamiz, goho ularga yemish ham bo'lamic... So'yilish navbatи bugun menga yetgan ekan, o'limim oldidan bir iltimosim bor...

### Xudoyerdi To'xtaboyev



#### Savollarga javob bering.

1. Podsho nimaga qiziqar ekan?
2. Uning bog'i qanday ekan?
3. Malika nima yerkan?
4. Jallod qushni nega so'ymoqchi edi?
5. Jallod nimadan hayron qoldi?
6. Qush shohga nima dedi?
7. Nima deb o'ylaysiz, qushning qanday iltimosi bo'lishi mumkin?



**Quyida berilgan so'zlar qatnashgan gaplarni matndan topib, qayta o'qing. Ushbu so'zlar gaplarda qanday ma'noda kel-ganini aiting.**

arz

zilol

shabboda

g'oyat

tanob

sayroqi

to'satdan

qiyg'os

fayz-tarovat

poyonsiz



**3. Bu so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing. Ulardan to'rttasini tanlab olib, gap tuzing va yozing.**



11



## “Vatan” ertaginiq ikkinchi qismini o‘qing.

### VATAN

#### (2-qism)

- Ayt iltimosingni, – debdi podsho.
- Ruxsat bersangiz, o‘limim oldidan Vatanimni bir ko‘rib, yaqinlarim bilan vidolashib kelsam, – deb zorlanibdi qushcha.

Podsho shu qushchaga men yaratgan bog‘ vatan bo‘lmabdi, na-hotki uning vatani bundan ham go‘zalroq bo‘lsa, agar shunday bo‘lsa, undan namuna olishim kerak ekan, deb o‘ylab, orqasidan poyloqchi qo‘yib, qushchaga ruxsat beribdi.

Qushcha yetti kecha-yu yetti kunduz uchib, nihoyat bir sahro-yu biyobonga borib yetibdi. Jazirama sahroda bir tup qurib qolgan daraxt bor ekan. Qushcha o‘shaning kovagiga kirib, Xudoga ming qatla shukur, vatanimni ko‘radigan kunim bor ekan, oh, mening ko‘z ochgan uyim, oh, mening ota-onamni ko‘rgan chiroyli kovagim, oh, uklarim bilan chirqillashib katta bo‘lgan maskanim deb, ko‘ziga yosh olib, kovakda to‘xtamay dumalar, chetlarini nozik qanotlari bilan silabsiyalar emish. Qushcha tug‘ilgan mas-

kani bilan xayrlashib, podshoning huzuriga qaytibdi. Poyloqchi ham bo‘lgan voqeani oqizmay-tomizmay so‘zlab beribdi. Podsho adolatli ham ekan. Demak, deb o‘ylabdi u, hammaga, u insonmi, qushmi, kim bo‘lishidan qat’i nazar, begona bog‘-rog‘lardan ko‘ra, kovakdek xarob bo‘lsa ham, o‘zi tug‘ilib o‘sgan joyi qadrli maskan bo‘larkan, o‘sha yerni qo‘msab, o‘sha joyni ulug‘lab, e’zozlab yasharkan.

Podsho shularni o‘ylab, gulzordagi boshqa o‘lkalardan keltirilgan barcha qushlarga ozodlik beribdi.

**Xudoyberdi To‘xtaboyev**






1. Qushchaning oxirgi iltimosi nima ekan?
2. Podsho nima uchun qushchaning ortidan poyloqchi qo'yibdi?
3. Qushcha qayerga boribdi?
4. Qushcha tug'ilib o'sgan kovagida nima qilibdi?
5. Podsho nima uchun boshqa yurtlardan keltirilgan qushlarni qo'yib yuboribdi?



### **Ertakdan olingan quyidagi ikki parchani o'qing.**

Gulzordagi ariqlardan zilol suvlar shildirab oqib yotarkan. Bog' bamisol jannatdek bo'lib, zilol suvlarning shildirab oqishi, qiyg'os ochilgan gullarning shabbodada mayin tebranishi, sayroqi qushlarning yoqimli ovozi bog'ning fayz-tarovatini oshirarkan...



Jazirama sahroda bir tup qurib qolgan daraxt bor ekan. Qushcha o'shaning kovagiga kirib, Xudoga ming qatla shukur, vatanimni ko'radigan kunim bor ekan, oh, mening ko'z ochgan uyim, oh, mening ota-onamni ko'rgan chiroyli kovagim, oh, uklarim bilan chirqillashib katta bo'lgan maskanim deb, ko'ziga yosh olib, kovakda to'xtamay dumalar, chetlarini nozik qanotlari bilan silab-siypalar emish.



**Bilasiz, yozuvchi ertakdagи voqealarni o'zi to'qiydi.**

**Nima deb o'ylaysiz, adib nima uchun qushchaning uyi sifatida cho'ldagi qurib qolgan daraxtning kovagini tanlagan? Bundan maqsadi nima edi?**




**4. Quyida berilgan matnni o'qing. Matnni yaxshi tushunguncha bir necha marta o'qish mumkin. Keyin tushunchangizni o'z so'zlaringiz bilan daftarga yozing.**

## MUSTAQILLIK

Boshqa davlatga qaram bo'lgan, mustaqil bo'limgan mamlakat aholisi o'zini erkin his qilmaydi. O'z urf-odatlarini bemalol qila olmaydi, o'z tilida bemalol gapirib, məktəbdə, universitetda o'z tilida o'qiy olmaydi. Bunday millat bora-bora yo'q bo'lib ketishi mumkin. Mamlakat mustaqilligi shuning uchun ham juda muhim narsadir. Shu sababli har bir xalq doim mustaqillikni xohlagan va buning uchun kurashgan. O'zbekiston ham 1991-yilda mustaqil bo'ldi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston yangi, yosh davlat sifatida jahon xaritasida o'z o'rninga ega bo'ldi.

Mustaqillik tufayli yurt tarixi, milliy madaniyat tiklana boshladi. Xalqning urf-odatlari, ma'naviy qadriyatları qaytarib berildi. Odamlar o'z yurtining egasi ekanini his qila boshladi.






## G'AROYIB BOLALAR



**"5 yoshida 500 ta kitob" audiomatnini tinglang.**



1. Iste'dodli bolalar tanlovi g'olibi bo'lgan bolakay qayerda ya-shaydi? Bu davlat haqida nimalarni bilasiz?
2. Lev Bondarenkoni unchalik qiziqtirmaydigan narsalar nima?
3. Bolakayning do'stlari haqida fikr bildiring.
4. Lev nima uchun bog'chadan xafa bo'lib qaytdi?
5. Bolaning qiziqishlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
6. Siz bir daqiqada nechta so'z o'qiy olasiz? Lev-chi?
7. Aytинг-chi, Levning mashhur bo'lishiga eng asosiy sabab qaysi?



1. Audiomatn asosida ma'lumotlarning to'g'ri (T) yoki noto'g'ri (N) ekanini aniqlang. To'g'ri ma'lumotlarni daftaringizga yozib oling.

Bolakay 200 dan ortiq ensiklopediya va 300 dan ortiq turli mavzulardagi kitoblarni o'qib chiqqan.	T / N
Lev chaqaloqligida tinmay yig'lardi, yupatish uchun onasi unga turli o'yinchoqlar berardi.	T / N
Kimyo faniga qiziqqan Lev bog'chadan qaytgach, uyda aka-si bilan turli kimyoviy tajribalar o'tkazishni yaxshi ko'radi.	T / N
5 yoshli Lev ukrain, rus va ingliz tillarida bemalol gaplashadi, daqiqasiga 145 ta so'z o'qiy oladi.	T / N
Kichik vunderkind multfilm va o'yinchoqlarga mutlaqo qiziq-maydi.	T / N
Levning onasi Olga Zvyanseva – kitobxon.	T / N



**Berilgan so'zlarni o'qing. Qator undoshli bo'g'inalarni aniqlang.**

v u n d e r k i n d  
m u l t f i l m  
f a r z a n d



**2. Audiomatndan olingan quyidagi so'zlarni o'qing. To'g'ri yozilgan so'zlarni aniqlab, ko'chiring.**

farzand                      kitob                      kitop                      kitobhon  
 kitobxon                      ko'b                      mexnat                      farzant  
 g'aroyib                      ko'p                      mehnat                      g'aroyip





**Rasm va qisqa ma'lumotlarga diqqat qiling. Tanishgan ma'lumotlaringiz asosida og'zaki hikoya tuzing.**

Kim Ung Yon

3 yoshidan 6 yoshigacha Xanyun universitetida o'qigan

15 yoshida fizika fanlari doktori

Ginnessning rekordlar kitobiga kiritilgan

4 yoshida 4 ta tilni bilgan

4 yoshda qiyin masala yechish

janubiy koreyalik

Xitoy va koreys tillarida she'r yozgan



1. Sizningcha, rasmdagi qahramon kim va u qayerlik?
2. Uni g'aroyib bola deb atash mumkinmi? Nima uchun?
3. U qaysi soha olimi bo'lgan?
4. Aiting-chi, Ginnessning rekordlar kitobiga kimlar kiritiladi?

G'aroyib bolalar (*vunderkind* – ajoyib bola) iste'dodlarini juda kichik yoshdayoq ko'rsata boshlashadi.



- 3. Siz uchun qaysi so'zlar notanish? Ularni yozib oling.**
- 4. Rasmdagi qahramon haqida bitta ma'lumot yozing.**

**Namuna** U 4 yoshida qiyin masalalarni yecha olgan.



17



...

**A.** Alisher Navoiy bolalik paytlaridayoq juda ziyrak, aqli, odobli bola bo'lgan ekan. Uch yoshidan boshlab she'r, musiqa eshitishni nihoyatda yaxshi ko'rар ekan. Juda **tiyrak** bola bo'lgani uchun otasi uni to'rt yoshida maktabga beribdi. Alisher kichkina bo'lishiga qaramay, juda ham yaxshi o'qibdi.

**B.** Biroq Alisherning Hirotda o'qishi uzoqqa cho'zilmabdi. Urush, janjal-u to'polonlar sabab ko'pgina oilalar qatori Alisherlarning oilasi ham ko'chib ketishga majbur bo'libdi.

**D.** U paytlarda odamlar uzoq joylarga boradigan bo'lishsa, tuyalarda, ot-aravalarda ketishgan. Yo'l uzoq, havo issiq bo'lgani uchun kunduzi dam olib, kechasi yo'l yurishgan. Bir kuni kechasi Alisher ot ustida ketayotganida charchab, uxbab qolibdi. U otdan yumshoqqina qum ustiga sirg'alib tushib, uxlayveribdi. **Karvondagilar** buni bimay, ketaverishibdi.



**E.** Ertalab, quyosh chiqqanda Alisher uyqudan uyg'onibdi. Atrofga qarab qo'rqib ketibdi, yuragi duk-duk uribdi. Birdan o'z otini ko'rib qolibdi. U ketib qolmay, egasi uyg'onishini kutib turgan ekan. Alisher rosa xursand bo'libdi. U **darhol** otining yoniga borib, uni mehr bilan silabdi. So'ng **sinchkovlik** bilan qumga qarab, otlarning izini qidiribdi. Otlar izi quyosh chiqadigan tarafga qarab ketgan ekan. Alisher ham otiga minib, ana shu izlar bo'ylab yo'lga tushibdi va omon-eson ota-onasining yoniga yetib boribdi.

**Zamira Ibrohimova**



1. Alisher Navoiy bolaligida qanday sifatlarga ega bo‘lgan ekan?
2. Otasi nima uchun uni erta maktabga berdi?
3. Alisherlar oilasining Hirotdan ko‘chib ketishiga nima sabab bo‘libdi?
4. Alisher uyqudan uyg‘ongach, nima uchun qo‘rqib ketdi?
5. Alisher ota-onasini qanday qilib topdi?
6. Alisherni g‘aroyib bola deb o‘ylaysizmi? Nima uchun?
7. Siz ushbu matnga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?



**5. Matndan “x” va “h” harflari ishtirok etgan so‘zlarni aniqlang va talaffuz qiling. Daftaringizga yozing.**

**Namuna** *nihoyat, ...*



**Matn asosidagi topshiriqlarni bajaring.**

• **Matn asosida 2 ta to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.**

- ✓ Alisherni uch yoshidan mакtabga berishgan.
- ✓ Alisher o‘qishni Hirotda boshlagan.
- ✓ Alisher o‘ynab yurib adashib qolgan.
- ✓ Tuyalar izi quyosh botadigan tarafga cho‘zilib ketgan.
- ✓ Alisher uch yoshidan musiqa, she‘r eshitishni yaxshi ko‘rgan.

**6. Matn xatboshilariga mos sarlavhalarni to‘g‘ri ketma-ketlikda yozing.**

Aqli qaror

Zehnli bola

Tundagi voqeа

Ko‘chish

- **Siz ham murakkab vaziyatga tushib, qo‘rqib ketganmisiz? Undan chiqish uchun qanday yo‘l tutgansiz?**



**7. Gaplardagi ajratilgan so‘zlarning ma’nosini aniqlang va ko‘chirib yozing.**

**Namuna** *darhol – tez, darrov...*

1. Juda **tiyrak** bola bo'lgani uchun otasi uni to'rt yoshida maktabga beribdi.
2. **Karvondagilar** buni bilmay, ketaverishibdi.
3. U **darhol** otining yoniga borib, uni mehr bilan silabdi.
4. So'ng **sinchkovlik** bilan qumga qarabdi...

hech narsani e'tibordan  
qoldirmaslik

ziyrak,  
hushyor

uzoq joylarga yuk va odam  
tashiydigan, izma-iz yuradigan  
hayvonlar, aravalor va ularni  
boshqarib boradigan odamlar qatori

tez, darrov



### 8. Matndan olingan quyidagi so'zlarni talaffuz qiling va yozing. Ularning talaffuzi va yozuvida qanday farq bor?

to'rt

mehr

aqli

xursand


nihoyatda



## AQLNI KO'P ISHLATSA, KAMAYARMI?

"Aqlni ko'p ishlat", dedim  
Bitta o'g'longa,  
Shunday dedi so'zlarimdan  
Qolib hayronga:  
"Har bir odam bor narsasin  
Asrar, ayar-ku,  
Voy, aqlimi ko'p ishlatsam,  
U kamayar-ku?!"  
Ey bolalar, bu gap chinmi,  
U kamayarmi?  
Miya nomli sirli xumda  
Qolarmi yarmi?"





Barcha bilar, kamaymaydi  
Ishlatgan sari,  
Aql qancha ishlatilsa,  
O'sar **aksari**.  
**Aql noyob javohirday**,  
Boshdir – xazina.  
Bilim bilan to'ldirishga  
Harakat – **zina**.  
Harakatsiz qolgan narsa  
Bo'lganday **mayib**,  
Ishlamasa, aql boshda  
Qolar kamayib.

*Po'lat Mo'min*



1. Ayting-chi, aql qayerda bo'ladi?
2. Bola nimaga hayron bo'ldi?
3. Odam nimalarni asrab-avaylashi kerak?
4. Aqlning ozuqasi nima deb o'ylaysiz?
5. Harakatlanmagan narsa rostdan ham yaroqsiz bo'lib qoladimi?
6. "Aql yoshda emas – boshda" maqolini izohlang.



### 9. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar bilan ularning izohini moslab daftaringizga yozing.

mayib

bebaho, kam uchraydigan

zina

qimmatbaho boylik

javohir

yuqoriga va pastga tushish qurilmasi

aksari

shikastlanish sababli asl holatini yo'qotish

noyob

ko'pincha



**10. She'rdan bolaning gaplarini ajratib, yozing. Tinish belgilarini to'g'ri qo'ying.**





**Shoir bosh, miya va harakatni nimalarga o'xshatgan? Rasmlardan topping va moslang. Tanlovingizni izohlang.**

Bosh \_\_\_\_\_

Miya \_\_\_\_\_

Harakat \_\_\_\_\_



**11. Eshitgan yoki o'qigan matnlaringizdagi qaysi bola sizga juda yoqdi? Ushbu g'aroyib bolaga xat yozing.**

*Xatingizda quyidagilar bo'lishiga e'tibor bering:*

- xat boshlanmasi;
- nega aynan unga xat yozganingiz;
- beradigan savollaringiz;
- xatning yakuni.


**G'aroyib bolaga maktub**

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_


\_\_\_\_\_



## JAMOAT TRANSPORTI




Rasmlarga qarang. Jamoat transporti turlarining nomini toping. Ularning o'xshash va farqli jihatlarini ayting.



- 1.** Bu transportlarning qaysilarini bilasiz? Qaysilaridan foydalangansiz?
- 2.** Nega ularni "jamoat transporti" deb ataymiz?
- 3.** Sizningcha, jamoat transportining eng muhim vazifasi nima?
- 4.** O'ylab ko'ring, nega taksi jamoat transporti hisoblanmaydi?
- 5.** Sizga qaysi transport ko'proq yoqadi? Nima uchun?



## Rasmlarga izoh bering.



**1. Jamoat transportida yo'lovchilar o'zini qanday tutishi kerak? Bu haqida do'stlaringiz uchun tavsiyalar yozing.**



1. Hikmat deganda nimani tushunasiz?
2. Kattalarning nasihatni bizga nima beradi?

## UCH HIKMAT

### 1-qism

Farhod har doimgidek o'rnidan barvaqt turdi. Yotog'ini tartibga soldi. So'ng yuz-qo'lini yuvib, oshxonaga chiqdi. Bu vaqtda butun oila jamuljam bo'lib nonushta qilayotgan ekan. Farhod hammaga salom berib, buvisining yoniga o'tirdi.

– Qorningni yaxshilab to‘ydir, – dedi buvisi stoldagi yong‘oq, mayiz va qaymoqni Farhodga yaqinroq surib. – Qorning to‘q yursa, kallang yaxshi ishlaydi. O‘qituvching bergan savollarga to‘g‘ri javob berasan.

– Rostdanmi, shunda matematikadan ham besh olamanmi? – shoshib so‘radi Farhod.

– Albatta. Qani, endi dasturxonga qara.

Nonushtadan keyin Farhod mактабга ketishga hozirlandi. Maktab kiyimlarini kiydi. Papkasiga kitob va daftarlarini, oyisi tushlik uchun tayyorlagan yegulikni soldi. Ketishi oldidan buvisi uni bag‘riga bosib nasihat qildi:

– Bolam, agar uzoqlashayotgan avtobusni ko‘rsang, yetib olay deb yugurma. Yiqilib tushsang, u yoq-bu yog‘ing lat yeydi. Avtobus ko‘p, birpas kutsang, boshqasi keladi.



– Xo‘p bo‘ladi, buvijon. Men ketdim.

– Ehtiyot bo‘lib ket, avtobusda o‘zingdan kattalarga joy ber, baraka topasan, – deya buvi nabirasini darvozagacha kuzatib qo‘ydi.

Bekatda avtobus turgan ekan. Farhod unga chiqib, oppoq ro‘mol o‘ragan yoshi katta ayolga salom berdi va uning yonidagi bo‘sн joyga o‘tirdi. Avtobus endi yurayotgan edi, uzoqdan o‘rtog‘i Sardor ko‘rindi.



## 2. O‘qigan matningiz asosida beshta savol tuzib, yozing. Partadoshingiz tuzgan savollarga yozma javob bering.

## UCH HIKMAT



Sizningcha, hikoyaning davomida nimalar sodir bo'ladi?

### 2-qism

Sardor avtobus tomon qo'l silkitib yugura boshladi. Oyog'i ostidagi toshni ko'rmadi, shekilli, qoqilib yiqildi. Papkasi qo'lidan uchib ketdi.

– Shofyor amaki, iltimos, to'xtating, o'rtog'im kelyapti, – o'rnidan turib ketdi Farhod.

Avtobus sal yurib, to'xtadi. Sardor avtobusga chiqib oldi. Uning kiyimlari, yuz-ko'zlari tuproq bo'lgandi. Farhod o'rtog'ining egnidagi changlarni qoqarkan, sekin so'radi:



– Nima, biving senga yurib ketayotgan avtobus ortidan yugurma, deb aytmaganmi?

– Buvim biz bilan turmaydilar, – xo'rsindi Sardor.

– Ha, buvisi bor bolalarga yaxshi, men ham nabiralarimga ko'p narsalarni o'rgataman, – suhbatga qo'shildi ro'molli xola.

Keyingi bekatda avtobusga yuzidan nur yog'ilib turgan otaxon chiqib keldi. Farhod shu zahoti o'rnidan turib, qariyaga joy berdi. Otaxon: "Rahmat, bolam", deb o'rindiqqa joylashdi. Biroz nafas rostlab olganidan so'ng, Farhod va Sardorni uzoq duo qildi. Bu orada avtobus maktab bekatiga kelib to'xtadi.

– Biz mакtabimizga yetib keldik. Xayr, yaxshi yetib olinglar, – Farhod bilan Sardor avtobus eshigi tarafga qarab yurishdi.

– Yaxshi boringlar, "besh" olinglar, – deya xayrlashdi ro'molli xola va otaxon.

Maktab darvozasidan kirisharkan, Farhod mamnun kayfiyatda shunday dedi:

– Sardor, buvum aytgan gapning ikkitasi to'g'ri chiqdi. Uchinchi si ham isbotini topsa kerak, mana ko'rasan, bugun matematikadan "besh" olaman!

### **"Gulxan" jurnalidan olindi**



1. Avtobusga chiqqanda yana qaysi qoidalarga amal qilish kerak?
2. Farhod nima uchun mamnun kayfiyatda maktabga kirib keldi?
3. Nima uchun hikoya "Uch hikmat" deb nomlangan?
4. Tasavvur qiling, avtobusga bir vaqtda keksa onaxon, qari otaxon va qo'lida chaqaloq ko'targan ayol chiqib qoldi. Farhod bularning qay biriga joy berishi kerak? Nima uchun?
5. Nima deb o'ylaysiz, Farhod bugun 5 baho oladimi?



**3. Buvisi Farhodga aytgan uchta nasihatni tartib bilan yozing.**





**Metro haqida bilasizmi? Uning boshqa taransportlardan qanday farqi bor?**

## METRODA



Shoshib tushsam metroga,  
Bitta bola joy berdi.  
Qo‘lin qo‘yib ko‘ksiga:  
– O‘tiring, aka, – dedi.  
Yurmasidan uch bekat  
Bir chol kirdi vagonga.  
Shartta o‘rnimdan turib,  
Joy berdim otaxonga.  
– Qo‘yavering, – desa ham  
O‘tirolmay bemalol,

Yosh bolali kelunga  
Joyin berdi o‘scha chol.  
O‘n chog‘li katta-kichik  
Shu payt bo‘shatdi o‘rin.  
Bosh chayqadi otaxon –  
Qaysarligini ko‘ring.  
**Go‘zal** edi bu holat,  
**Nafosatga edi boy!**  
Hamma yetdi **manzilga**  
Va hammadan qoldi joy...

**Abdurahmon Akbar**



1. Bu she‘rning muallifi kim?
2. She‘rning bosh qahramoni kim: otaxonmi yoki voqeani aytib berayotgan kishimi?
3. Otaxon nega bosh chayqadi, qaysarlik qildi?
4. Bosh chayqash qanday bo‘ladi? Ko‘rsatib bera olasizmi?
5. She‘rda qaysi holatga “go‘zal edi, nafosatga boy edi” deb ta’rif berilgan? Nega go‘zal? Nega nafosatga boy?
6. Ayrim xalqlarda jamoat transportida o‘zidan kattalarga joy berish an‘anasi yo‘q ekan. Siz bunga qanday qaraysiz? Balkingi, bu to‘g‘ridir?



**4. Ajratilgan so‘zlar she’rda qanday ma’noda qo‘llanayotganini sinfda muhokama qiling. Bu so‘zlarning izohini daf-targa yozing.**

boy

go‘zal

manzil

nafosat

**5. Berilgan namunalar qatnashgan gaplar tuzing.**

marhamat

keling, o‘tiring

yo‘q, rahmat

yordam kerakmi?

rahmat

kechirasiz



**“Ilk jamoat transporti” audiomatnini tinglang.**



1. Audiomatnda qaysi jamoat transporti turlarining nomi keltililgan?
2. Ilk tramvay nimaga o‘xshardi? U qanday harakatlanar edi?
3. Sizningcha, jamoat transporti bo‘limgan paytlarda odamlar manziliga qanday yetib olgan?
4. Dastlab avtobuslarning soni nechta edi? Hozir-chi?
5. Toshkent metropoliteni qaysi jihatdan birinchi o‘rinda?



**Transport va unga bog‘liq ma’lumotlarni moslashtiring.**

1 Tramvay

A O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib 1977-yilda foydalanishga topshirilgan.

2 Avtobus

B 1909-yildan Toshkent ko‘chalari bo‘ylab yura boshlaydi. Dastlab 10 dona bo‘lgan. Hozir poytaxtimizda 150 dan ortiq yo‘nalishda yo‘lovchilarga xizmat qilmoqda.

3 Metropoliten

4 Trolleybus

D Toshkentdagи ilk jamoat transporti. 1901-yili ishga tushirilgan.

E Elektr toki bilan harakatlanadi. Toshkent shahrida 2010-yilda harakati to‘xtatilgan.






## 6. Yo‘nalishni to‘g‘ri tuzib chiqing.

Madina 14-maktabda, Ibrohim esa 37-maktabda o‘qiydi. Ularning birini tanlab, maktabga borish yo‘nalishini tuzib chiqing.

- Nechanchi raqamli avtobusga minadi?
- Yo‘lda qaysi bekatlarni bosib o‘tadi?
- Qanday joylar yonidan o‘tadi?



Xaritadan biror joyni ko‘rsatib, partadoshingizdan bu joyga qanday borish mumkinligini so‘rang.




## O'zbekistonning o'ziga xos tabiatи



Xaritaga qarab O'zbekistonning tabiatи haqida suhbat-lashing.



Qirilib ketgan jonzotlar: turon yo'lbarsi, gepard, qulon, orol sulaymonbalig'i.



Qirilib ketish xavfi bor jonzotlar: tog' qoplioni, qoraqulog, silovsin, oq tirnoqli ayiq, xongul, burama shoxli echki, Buxoro qo'y, Qizilqum arxari, jayron.

227 turdagи hayvon yashaydi.



Vatanimiz hududi dan Osiyoning asosiy daryolaridan bo'lgan Amudaryo va Sirdaryo oqib o'tadi.



441 turdagи qush yashaydi.

O'zbekistonda jahonning eng yirik cho'llaridan biri bo'lgan Qizilqum cho'li hamda Orol dengizi mavjud.



Yurtimiz shimalida esa Tyanshan va Pomir-Oloy tog'lari yastanib yotibdi.





1. Xaritaga qarab aytинг-chi, O'zbekiston qaysi davlatlar bilan qо'shni ekan?
2. Siz qaysi hududda yashaysiz? Xaritadan topib ko'rsating.
3. Yurtimizda qanday tog' tizmalari bor ekan?
4. Yurtimizdagi daryolarni ko'rsating.
5. Cho'l nomini aytинг.
6. Qurib borayotgan Orol dengizi haqida nimalar ayta olasiz?
7. Yurtimizda yashaydigan hayvonlar va qushlar haqida nima-larni bilib oldingiz?



**1. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.**

Hududlar va davlatlar nomi	Tog'lar nomi	Daryolar va cho'l nomi	Hayvonlar nomi
?	?	?	?



**Ayting-chi, nima uchun ayrim so'zlarni bosh harflar bilan yozdingiz?**



**"Yurtim guli – xongul" audiomatnini tinglang.**



1. Avstraliya, Afrika va Xitoyning noyob hayvonlari qaysilar?
2. Nega xongulni O'zbekistonning eng noyob hayoni deb bilamiz?

3. Nega bug'uning bu turiga "xongul" deb nom berilgan?
4. Bug'ularning qirilib ketishiga nima sabab bo'ldi?
5. Tarixda Buxoro bug'ulari ko'proq qaysi hududlarda yashagan?
6. Bug'ularni asrab qolish uchun nimalar qilish kerak deb o'ylaysiz?



**2. Harflarni to'g'ri joylashtirib, so'zlarni yozing. Bosh harflar imlosiga e'tibor qiling.**

**Namuna** fraiak – Afrika, ...

daumroya

ysaroidr

ug'bu

shazfnaor

satvarlyia

ouroxb

ndaap

**3. Eshitganlaringiz asosida xongul haqidagi ma'lumotlarni yozing.**

*Nomi:*

Nima uchun bu nomni olgan?

*Yashash joyi:*

O'tmishda qayerlarda yashagan?

*Asosiy dushmani:*

*Oziqlanishi:*



**Ayting-chi, qo'riqxonada nimalar qo'riqlanadi?**




## QO'RQOQ BUG'U

**A.** O'rmondagi barcha bug'ular yig'ilib, majlis o'tkazibdi.

– Qachongacha bo'rilarga yem bo'lamiz?! – debdi jahl bilan ularning biri. – Kechagina eng kuchli, navqiron bug'uni quvlay-quvlay charchatib, qulatishibdi. Endi bunga chek qo'yaylik. Kuchimiz yetmasa, hiyla ishlataylik. Men hammasini o'ylab qo'yanman.

**B.** Shunday qilib, u o'z rejasini to'dadoshlariga aytib beribdi. Rejaga ko'ra, u boshiga ajdar niqobini kiyibdi. Ustiga yo'lbarsning yo'lyo'li terisini yopibdi. Tuyoqlariga ayiqning o'tkir tirnoqlarini bog'labdi. U shu qadar qo'rqinchli ko'rinishga kelibdiki, hatto ba'zi bug'ular qo'rquvdan qaltirab, hushidan ketib qolibdi.

– Endi bo'rilar meni ko'rishi bilan qo'rquvdan orqalariga qaramay qochishadi, – debdi u.



– Ha, faqat ayiqdek o'kirishni ham o'rganishing kerak, – deb maslahat beribdi bug'ularning biri.

Bir necha mashqdan so'ng bug'u o'kirishni ham o'rganib olibdi.

**D.** Ko'r o'tmay, ularga bo'rilar to'dasi hujum qilibdi. Barcha bug'ular qochib ketibdi, faqat niqobli bug'u qolib, bo'rilarini kutibdi. Uni ko'rgan bo'rilar joylarida taqqa to'xtashibdi. Ovozlari chiqmay, past ovozda g'ingshiy boshlashibdi. Ba'zilari dumlarini qisib, uvullab ham yuboribdi.

**E.** Niqob ostidagi bug'u ham hech bo'rilarga bunday yaqin kelmagan edi. Ularning cho'g'dek yonib turgan ko'zlarini ko'rib, yuragi "shuv" etibdi. Oyoqlari qaltirabdi. Shu tobda ayiq kabi o'kirishi kerakligini eslabdi. U bor kuchi bilan "o'kiribdi". Biroq qo'rqib ketgani uchun ayiqning emas, bug'uning hadik to'la beo'xshov ovozi eshitilibdi. Uning aslida oddiy bug'u ekanini sezib qolgan bo'rilar sardori:

– G'ajib tashlanglar buni! – deya qichqiribdi.

Barcha bo'rilar bug'uga tashlanishibdi.

Bug'u esa boshidagi ajdar niqobini, ustidagi yo'lbars po'stinini, oyoqlaridagi ayiq tirnoqlarini uloqtirib, jon talvasasida qochib qolibdi.

**F.** Qissadan hissa shuki, niqob kiyish bilan hech kim botir bo'lib qolmaydi. Jasurlik kishining yuragida bo'ladi.

*Shukrullo Abdullayev*



1. Bug'ularning majlis qilishdan maqsadi nima edi?
2. Qo'rinchli maxluqqa aylanish uchun bug'u nimalarni kiyib oldi?
3. Bo'rilar nega bug'uning hiylasini bilib qolishdi?
4. Sizningcha, bug'ular qanday yo'l tutishi kerak edi?
5. Jasurlik va qo'rkoqlik deganda nimalarni tushunasiz? Misollar bilan o'z fikringizni asoslang.



#### 4. Matn qismlarini to'g'ri ketma-ketlikda yozing.

Bug'uning rejasi

To'daga hujum

Xulosa

O'rmondag'i majlis

Niqob ostidagi qo'rquv

#### 5. Matndan olingan quyidagi so'z va iboralar bilan ularning izohini moslab, daftaringizga yozing.

cheq qo'yish

kuchli ovoz  
chiqarish

navqiron

shu vaqt

o'kirmoq

to'plangan  
hayvonlar guruhi

to'da

yosh, kuch-  
quvvatga to'lgan

shu tob

tugatish



#### Quyidagi gaplarda qanday farq bor? Izohlang.

Ularning cho'g'dek yonib turgan ko'zlarini ko'rib, yuragi "shuv" etibdi.	Ularning ko'zlarini ko'rib, qo'rqib ketibdi.
Kechagina eng kuchli, navqiron bug'uni quvlay-quvlay charchatib, qulatishibdi.	Yaqinda eng kuchli bug'uni quvlayverib charchatib, qulatishibdi.
Endi bo'rilar meni ko'rishi bilan qo'rquvdan orqalariga qaramay qochishadi.	Endi bo'rilar meni ko'rishi bilan qo'rquvdan qochishadi.



**6. Matndan quyidagi so‘roqlarga javob bo‘lувчи со‘zlarni topib, yozing.**

**Nima qilibdi?**  
kiyibdi

**Qanday?**  
ayiqdek

**Nima?**  
bug‘u

**7. Hikoyadan chiqargan xulosangizni yozing.**



**Yaylov nima?**



## **YAYLOV ROHATI**

Веройон yaylov,  
Кетардим yayov.  
О‘tlar xilma-xil,  
Ham Mayoq yashil.  
Oyoqyalangman.  
Alang-jalangman –  
To‘ymaydi ko‘zim.  
O‘zimdan o‘zim –  
Aytaman qo‘sishq,  
Yo‘q biror to‘sinq.  
Yel mayin yelar,  
Eh, uchgim kelar.  
Keng osmon yaqin,  
Havo sal salqin,  
Beg‘ubor, toza.  
Rohat-u maza.  
Bosaman oyoq –  
Gilamday yumshoq.  
Yengilman qushday,  
Misoli tushday...  
Веройон yaylov,  
Kezardim yayov.



**Po‘lat Mo‘min**



1. She‘r qahramoni tabiatdagi nimalarni tasvirladi?
2. Ayting-chi, nima uchun bolaning ko‘zlari “alang-jalang”?

3. Qahramon o'zini nimaga o'xshatdi? Izohlang.
4. Yaylovda yana nimalar bo'ladi?
5. Siz qayerga borganingizda rohatlanasiz? Nima uchun?



**8. Quyida berilgan ma'nodosh so'zlarni o'qing. She'r matnidan olingan so'zlarning ma'nodoshlarini topib, yozing.**

**Namuna** Beg'ubor – toza.  
Rohat – maza.

bepoyon, o't, yel, osmon, yayov, qo'shiq

**9. She'r matni asosida yaylovnini o'z so'zlaringiz bilan tasvirlab yozing.**



**10. Rasmga qarab O'zbekistonning tabiatini haqida matn yozing.**



# ANTARKTIDA – MUZ SALTANATI



**Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.**



1. Ayting-chi, Antarktida Yer sharining qaysi qismida joylashgan?
2. Antarktidaning bu qadar sovuq bo'lishiga asosiy sabab nima deb o'ylaysiz?
3. Antarktidada yashaydigan chag'alay, bo'ronqush nima bilan oziqlanadi deb o'ylaysiz?
4. Dengiz qoploring nimasi qoplonga o'xshaydi?
5. Dengiz filiga nega bunday nom berilgan?
6. Delfin haqida nimalarni bilasiz?
7. Ko'k kit va kashalotning qanday farqli jihatlarini ko'ryapsiz?



**1. Antarktidada qanday hayvonlar yashar ekan? Ularning nomini talaffuz qiling hamda daftaringizga ko‘chirib yozing.**

**2. Hayvonlarning nomlari ishtirok etgan xabar mazmunidagi gap yozing.**

**Namuna** *Antarktidada chag‘alay, bo‘ronqush kabi qushlar yashydi.*



## ANTARKTIDA



Antarktida sayyoramizdagi oltita qit’adan biridir. U Yer sharing eng janubida joylashgan. Qit’aning deyarli hamma joyi muz bilan qoplangan. Antarktidaga birinchi bo‘lib, 1899-yilda norvegiyalik Karsten Borxgrevink qadam qo‘ygan.

Bundan million yillar avval Antarktida issiq o‘lka bo‘lgan. Undagi o‘rmonlarda bahaybat hayvonlar yashagan. Ammo asrlar o‘tib, Antarktida sekin-asta muz sultanatiga aylana boshlaydi. Olimlarning aniqlashicha, qalinligi ming metrdan baland muz tog‘lari ostida temir, oltin, olmos, rangli metallar, ko‘mir singari foydali qazilmalar ko‘p ekan. Dunyodagi barcha ichimlik suvning asosiy qismi ham shu muzliklarda jam bo‘lgan. Hisob-kitoblarga qaraganda, Antarktidagi barcha muz erib ketsa, dunyo okeanlarining suvi 62 metrga ko‘tariladi.



Antarktidada havo juda sovuq, ayrim joylar quyosh nurini deyarli ko'rmaydi. Qish oylarida o'rtacha harorat 60 daraja sovuq bo'ladi. Qit'ada doimiy kuchli shamol, izg'irin bo'ronlar kuzatiladi.

Antarktida sayyoramizning eng kam o'rganilgan qismi hisoblana-di. Bundan 100 yil oldin dunyo olimlari qit'ani o'rganishga jiddiy kiri-sha boshladilar. Dunyoning o'ndan ortiq davlati Antarktidani birgala-shib o'rganishga kelishib oldi. Har xil millatga mansub yuzlab olimlar Antarktidaning turli qismlarida xilma-xil kuzatishlar olib bordilar.

Tadqiqotchilar yaxshi isitilgan uychalarda jon saqlashadi. Tashqa-riга chiqqanda ichidan elektr grelka isitib turadigan kiyim va himoya niqobi kiyib olishadi. Ular niqob ichiga o'rnatilgan maxsus filtr orqali nafas oladi.

Hatto Antarktidaning cheksiz muzliklarida ham hayot qaynaydi. Sohil bo'ylarida ajoyib qushlar, pingvinlar yashaydi. Qirg'oq yaqinida kitlar, kashalotlar, delfinlar, tyulenlarning bir necha turi, dengiz fili va dengiz qoplолнari suzib yuradi.

Antarktida hech bir davlatga tegishli emas. Xalqaro shartnomaga ko'ra, uning hududida harbiy harakatlar o'tkazish man etilgan. An-tarktida tinchlik qit'asidir.

- 
1. Antarktidaga birinchi bo'lib kim yetib borgan?
  2. Qadimda Antarktida qanday o'lka bo'lgandi?
  3. Antarktida muzliklari ostida qanday boyliklar bor?
  4. Muz holatidagi ichimlik suv haqida nimalarni bilib oldingiz?
  5. Antarktidaning iqlimi haqida nimalarni o'rgandingiz?
  6. Antarktidada tadqiqotchilar qanday yashaydi?
  7. Xalqaro shartnomaga ko'ra, Antarktida qanday hudud?



**3. "Antarktida" matni asosida berilgan gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlab, yozing.**

Antarktida qit'asining hamma joyi muz bilan qoplangan.	to'g'ri / noto'g'ri
Qit'a – foydali qazilmalarga boy.	to'g'ri / noto'g'ri
Antarktidada quyosh chiqmaydi.	to'g'ri / noto'g'ri
Tadqiqotchilar qit'ada qiyalmay yashaydi.	to'g'ri / noto'g'ri
Qit'ada har xil hayvonlar yashaydi.	to'g'ri / noto'g'ri



#### **4. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo'yib matnni ko'chiring.**

Antarktidaning cheksiz muzliklarida ham hayot qaynaydi. Sohil bo'ylarida ajoyib qushlar pingvinlar yashaydi. Qirg'oq yaqinida kitlar kashalotlar delfinlar tyulenlarning bir necha turi dengiz fili va dengiz qoplonlari suzib yuradi.



#### **5. Gaplarni o'qing. To'g'ri yozilgan gaplarni daftaringizga ko'chiring.**

1. Bundan million yillar avval Antarktida isiq o'lka bo'lgan.  
Bundan million yillar avval Antarktida issiq o'lka bo'lgan.
2. Dunyodagi barcha ichimlik suvning asosiy qismi ham shu muzliklarda jam bo'lgan.  
Dunyodagi barcha ichimlik suvni asosiy qismi ham shu muzliglarda jam bo'lgan.
3. Antarktidada havo juda sovuq, ayrim joylar quyosh nurini deyarli ko'rmaydi.  
Antarktidada xavo juda sovuq, ayrim joylar quyosh nurini deyarli ko'rmaydi.
4. Asirlar o'tib, Antarktida sekin-asta muz sultanatiga aylana boshlaydi.  
Asrlar o'tib, Antarktida sekin-asta muz sultanatiga aylana boshlaydi.



#### **"Jajji pingvin Loloning sarguzashtlari"** **multfilmini tomosha qiling.**



Video  
manba  
uchun  
havola

1. Bu multfilmni avval ham ko'rganmisiz?  
U nima haqida?
2. Antarktida qanday joy ekan?
3. Pingvinlar qish faslida qayerda yashashadi? Ular Antarktidaga qachon qaytishadi?
4. Pingvin dadalar Antarktidada nima qilishadi?
5. Antarktidada bahor qachon boshlanadi? Bu vaqtda pingvin oyilar nima qilishadi?
6. Pingvinlar nega Totoga: "Sen bizning haqiqiy sardormizsan", deb aytishdi?
7. Pingvin dadalar nima uchun dengizga yo'l olishdi?

8. Antarktidada yoz qachon boshlandi? Yozda qanday holatlar kuzatilar ekan?
9. Lolo qanday pingvin? U kim bilan do'st bo'ldi?



**6. Antarktidada qish va yoz fasllarida qanday holatlar kuzatilar ekan? Bittadan gap tuzib, yozing.**



## MUZ NEGA YIQITADI?

Karimjon juda hayron:  
Muz nega yiqitadi?  
**Toyg'anish-ku**, maza-ya,  
Yiqilish qo'rqtadi.  
Muzni ko'rgani zamон  
Qiziqib, toya boshlar.  
**Gurssa-gurssa** yiqilish  
Ba'zan ko'zini yoshlар.  
Go'yo toymasa bo'lmas,  
Ko'ngli yana **toy**, deydi.

Har safar yiqilganda:  
– Og'ridi, voy-voy, – deydi.  
Muz der: "Uyalmaysanmi,  
Vaqtinbekor sarf bo'lar.  
Chorakda "ikki" chiqsa,  
Toyg'anish benaf bo'lar.  
Men-ku, bahor kelganda  
Tezda erib ketaman.  
Ammo o'yinqaroqqa  
Jazo berib ketaman".

**Qambar Ota**





1. She'r kimning nomidan aytilyapti?
2. Muz nega yiqitadi?
3. Nega she'rda Karimjonga "o'yinqaroq" deb ta'rif berilgan?
4. "Chorakda "ikki" chiqsa, Toyg'anish benaf bo'lar" deganda nimani tushundingiz?



**7. She'rda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chirib yozing hamda ma'nosini aytинг.**

**8. She'rdan olingan ushbu parchani o'z so'zlaringiz bilan yozing.**

*Muz der: "Uyalmaysanmi,  
Vaqtning bekor sarf bo'lar.  
Chorakda "ikki" chiqsa,  
Toyg'anish benaf bo'lar..."*



**9. Berilgan ma'lumotlar asosida kichik hikoya yozing.**



- Yashash joyi – Antarktida.
- Qushlar oilasiga mansub.
- Umuman ucha olmaydi.
- Tuxum qo'yadi.
- Chuqr sho'ng'iy oladigan qush hisoblanadi.
- Mayda baliqlar bilan oziqlanadi.

- Yashash joyi – Antarktida.
- Sutemizuvchilar oilasiga mansub.
- Uzunligi 6 metrgacha, og'irligi 3 tonnagacha bo'ladi.
- Juni och qo'ng'ir rangda.
- Mollyuska va baliqlar bilan oziqlanadi.





## DUNYO OKEANLARI



Xaritaga diqqat bilan qarang. Savollarga javob bering.

### Dunyo okeanlari



1. Okean haqida eshitganmisiz? Sizningcha, okeanlar boshqa suv havzalaridan nimasi bilan farq qiladi?
2. Xaritada nechta okean tasvirlangan? Nomlarini ayting.
3. Nima uchun okeanlarga bunday nom berilgan deb o'ylaysiz?
4. Eng katta okean qaysi?
5. Xaritaga qarab ayting-chi, Yer sharining asosiy qismi quruqlikdan iboratmi yoki suvqlikdan?
6. Okeanda qanday jonzotlar yashaydi?



1. Okean hamda qit'a nomlarini ko'chirib yozing.
2. Dunyo okeanlari nomlarini qatnashtirib gaplar tuzing.

**Namuna** Tinch okean – Yer sharidagi eng katta suv havzasи.





## Dunyo okeanlari haqidagi audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.



1. Yer sharning suv bilan qoplanishi faqat okeanlar hissasiga to‘g‘ri keladimi? Javobingizni izohlang.
2. Yer sharning deyarli yarmini qoplagan okean qaysi?
3. Ayting-chi, okean tubi bir tekismi? Fikringizni izohlang.
4. Jonivorlar asosan okeanning qaysi qismida yashaydi?



## 3. Okeanlar haqidagi to‘g‘ri fikrlarni ko‘chirib yozing.

1	Dengiz o‘simliklari faqat quyosh nuri tufayli hayot kechirishadi.
2	Okeanda chuqurligi 11 km bo‘lgan botiqlar ham, yer yuzidagi tog‘lardan-da baland bo‘lgan okean qoyalari ham bor.
3	Okeanlardagi suv vodoprovod jo‘mragidan oqayotgan suvgaga o‘xshaydi.
4	Okeanning suvi sho‘r bo‘ladi.
5	Okeanlardagi suvning harorati doim bir xil bo‘ladi.
6	Okean tubi sovuq va qorong‘i bo‘lgani uchun ham asosiy jonivorlar suvning o‘rtacha qatlamlarida yashaydi.

## 4. Tinglagan matningiz asosida 3 ta gap yozing.

**Namuna** Yer yuzida to‘rtta okean bor.



### Bilimingizni sinang!

1. Nimalar dengiz suviga qo‘srimcha mineral moddalarni olib keladi?
   
A. Ariqlar      B. Daryolar      C. Soylar.      D. Ko‘llar
2. Yer sharning deyarli yarmini qoplagan okean qaysi?
   
A. Shimoliy muz okeani      D. Hind okeani
   
B. Atlantika okeani      E. Tinch okean
3. O’txo‘r dengiz jonivorlarini nima yemishsiz qoldirmaydi?
   
A. Daryolar      B. Okean      C. Quyosh      D. Tuzlar

*Dengiz va okeanni “ummon” deb ham ataymiz.*



45



**Qaysi rasmda to'lqin tasvirlangan?**



## IKKI TO'LQIN

### 1-qism

Ulkan ummonda aka-uka to'lqinlar yashar edi. Ular juda inoq bo'lib, doim birga suzib yurisharkan.

Kichik to'lqin juda ochiqko'ngil ekan. U uchar baliqlar, bahaybat kitlar, shamol va chag'alaylar bilan o'ynashni yaxshi ko'rarkan. Akasi esa ukasining aksi emish. U juda ham shiddatli bo'lib, ba'zan kuchli shamol turganda shafqatsiz to'fonga aylanib qolarkan. Yo'lida nima



uchrasa, urilib, buzib, cho'ktirib o'tib ketarkan. Ayniqsa, kemalarga hujum qilishni yoqtirarkan. U kema machtasidan ham balandroqqa ko'tarilar, palubaga tashlanib, kemani suvga to'ldirarkan. Uning changaliga tushgan kemalar odatda suvga g'arq bo'larkan. Yana uning sevimli mashg'uloti qoyalarga urilish edi. Qoyalarni yiqitishga urinib, ularga tez-tez bor kuchi bilan hamla qilarkan. Biroq qanchalik shafqatsiz bo'lmasin, ukasiga doim mehribonlik qilarkan.

Bir kuni ular sohil yaqinida o'ynayotsa, ukasi qumga o'tirib olib muzqaymoq yeyayotgan bolani ko'rib qolibdi.

– Men ham muzqaymoq yeyman, – debdi u.

– Hozir olib kelaman, – debdi aka. So'ng vajohat bilan bola tomoniga otolib, uning qo'lidagi muzqaymoqni tortib olibdi. Keyin ukasiga keltirib beribdi. Xursand bo'lgan uka esa muzqaymoqni bir zumda paqqos tushiribdi.

Shundan so'ng kichik to'lqin: "Endi nima qilamiz?" deb so'rabdi.

– Qarab tur, – debdi katta to'lqin. – Anavi qoyalarni ko'ryapsanmi? Hozir ularga shunaqangi zarba beramanki, bunaqasini hech qachon ko'rmagansan.

Shunday deb, u qoyalardan uch baravar balandga ko'tarilibdi va ularga shiddat bilan hujum qilibdi. Buni ko'rgan qoyalar qo'rqb ketib, bir-birlariga mahkam yopishibdi. Lekin katta to'lqin haddan tashqari tez va baland ko'tarilib yuborgani uchun qoyalarga urilish o'rning ularning ustidan o'tib ketibdi. Orqa tarafdagи chuqurlikka borib tushibdi. Qamalib qolgan to'lqin ummonga qayta olmabdi. U o'zini har tomonga uribdi, lekin foydasi bo'lmasdi. Shundan so'ng yordam so'rab qichqira boshlabdi.

*Donald Bisset  
Ingliz tilidan Mirjalol Madvaliyev tarjimasi*

**Dengiz** – okeanning quruqlikka tutashgan yoki quruqlikka yorib kirgan bo'lagi.



1. Katta va kichik to'lqinning fe'l-atvori bir xil ekanmi? Javobingizni izohlang.
2. Katta to'lqin kichik to'lqinga qanday mehribonchilik ko'rsatdi? Ayting-chi, bu to'g'rimi?
3. Katta to'lqin nima uchun qamalib qoldi?
4. Qoyalarni katta to'lqinning hujumidan nima qutqarib qoldi?



## 5. Quyidagi so‘zlarning izohini toping va ko‘chirib oling.

Paluba

Machta

To‘lqin

Kemalarning taxta qoplangan yuzasi, sahni

Qattiq chayqalib turgan suv betidagi po‘rtana

Kemaning qoq o‘rtasiga o‘rnatilgan,  
yelkan osish, kuzatish va signal berish  
uchun xizmat qiladigan ustun

**6. Matndan katta va kichik to‘lqingga xos sifatlarni, ko‘plik (-lar)  
ma’nosidagi hamda hajm-o‘lchovni bildiruvchi so‘zlarni aniqlab,  
yozing.**



## IKKI TO‘LQIN

### 2-qism

Bu paytda tepadan bir chag‘alay uchib o‘tayotgan ekan. U qoya ustiga qo‘nib, katta to‘lqindan so‘rabdi:

- Senga nima bo‘ldi?
- Bu yerdan chiqolmayapman, tuzoqqa tushib qoldim, – debdi katta to‘lqin. – Iltimos, menga yordam ber.
- Yo‘q, senga yordam bermayman, – debdi chag‘alay. – Sen ham-maga zarar yetkazasan, kemalarni cho‘ktirasani, qoyalarni qulatishga harakat qilasan. Hozirgina yosh bolaning qo‘lidan muzqaymog‘ini tortib olganiningni ham o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim.

Shu payt qoyaning narigi tomonida kimningdir yig‘layotgani eshitilibdi. Chag‘alay qoyalar ortida kichik to‘lqinni ko‘ribdi.

- Nega yig‘laysan? – so‘rabdi u mayin ohangda.
- Men akamning yoniga o‘tishni istayman. Manavi yaramas qoyalardan o‘tolmayapman, – debdi u yig‘idan o‘zini to‘xtata olmay.



- Iltimos, bizga yordam ber, – yalinibdi uka chag‘alayga.
- Men akangga yana ummonga qaytishi uchun yordam bermayman, – debdi chag‘alay. – Lekin sen uning yoniga o‘tishni xohlasang, yordam beraman.
- Roziman, – debdi kichik to‘lqin shosha-pisha.
- Shundan so‘ng chag‘alay unga qoyalarni aylanib quruqlikka o‘tadigan yo‘lni ko‘rsatibdi. Keyin oyoqlari bilan qoyaning ortiga olib boradigan ariqcha ochibdi. Kichik to‘lqin ana shu ariqcha bo‘ylab oqib boribdi va akasining yoniga o‘tib olibdi. Ular bir-birini ko‘rganida juda xursand bo‘lib ketishibdi.
- Kel, yaxshisi birlashib, bir tan-u bir jon bo‘lamiz, – taklif qilibdi akasi. Ukasi ham bunga rozi bo‘libdi va ular birlashib ketibdi. Shunday qilib, qoyalarni o‘rtasida atrofi yovvoyi gullarga burkangan kattagina ko‘l hosil bo‘libdi.

***Donald Bisset***  
***Ingliz tilidan Mirjalol Madvaliyev tarjimasi***



1. Qamalib qolgan katta to‘lqingga chag‘alay nima uchun yordam bermadi? Axir, qiynalganlarga yordam berish kerak emasmi?
2. Ayting-chi, chag‘alay kichik to‘lqingga nima uchun yordam berdi?
3. Kichik to‘lqin katta to‘lqin bilan qanday qilib uchrasha oldi?
4. Ertakdan chiqargan xulosangizni ayting.



## To'g'ri yoki noto'g'ri fikrni farqlang.

1	Chag'alay katta to'lqinning yana dengizga qaytishiga yordam-lashmasligini aytibdi.
2	Kichik to'lqin chag'alayning yordamisiz qoyalarni oshib o'tibdi.
3	Ikki to'lqin birlashib, dengizga aylanibdi.
4	Matnda dengiz, ko'l, daryo, ariq kabi suv havzalaring nomi uchraydi.
5	Qoya – tik ko'tarilgan cho'qqi.



**7. Matndan xabar, so'roq va buyruq ohangidagi gaplardan bittadan ko'chirib yozing. Tinish belgilarini to'g'ri qo'ying.**

## 8. Kerakli qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. *Shun\_\_ so'ng chag'alay un\_\_ qoya\_\_ atrofi\_\_ quruqlik\_\_ o'tadigan yo'l\_\_ ko'rsatibdi.*
2. *Hozirgina yosh bolakay\_\_ qo'li\_\_ muzqaymog'i\_\_ tortib olganning\_\_ ham o'z ko'zim bilan ko'rdim.*



## KEMACHAGA YOZILGAN SHE'R

Yo'Idosh qilib daryoni,  
Bir ko'rib ol dunyoni.  
**Yetganingda dengizga,**  
**Xabar berib qo'y bizga.**  
Okeanga chiqqan payt,  
Janob Kitga salom ayt –  
Qishloqdagi ariqdan,  
Hamma mayda baliqdan.

*Anvar Obidjon*






1. Kemaning odamlarga qanday foydasi bor?
2. She’rda qaysi suv havzalari aytib o’tilgan? Ularning farqini ayting.
3. She’rdagi qahramon ariqlar va mayda baliqlar nomidan qaysi jonivorga salom yo’llagan? Uni qayerda ko’rgansiz?
4. Nima deb o’ylaysiz, ariq faqat qishloqda bo’ladimi?

**Yo’Idosh so‘zining ma’nolarini aniqlang.**

- |                               |                          |
|-------------------------------|--------------------------|
| A. Mehribonlik qiluvchi       | D. Biror narsaga sherik  |
| B. Ishda, uyda birga bo’lувчи | E. Yo’lda birga boruvchi |



### Jonivorlar orasidan kitni toping.



- ✓ Ayting-chi, nima uchun kitga “janob” deb murojaat qilingan? Bu so‘zni qachon ishlatalamiz?
  - ✓ She’rda **mayda** so‘zi nimani bildiryapti?
- A. Hajmni B. Miqdorni D. Rangni E. Uzunlikni



### 9. She’rdagi qofiyadosh so‘zlarni yozib oling.



### 10. Ajratib ko’rsatilgan satrlarni o’z nutqingizga aylantirib yozing.



### 11. Ayting-chi, okeanlarda qanday jonivorlar yashaydi? Ularni tasvirlab kichik matn tuzing.

Tuzgan matningizda jonzotlarning quyidagi belgilariga e’tibor bering:

– nomi; – hajmi; – o’ziga xos xususiyati.



### She’rni yoddan aytib bering.



## MUSTAHKAMLASH DARSI



Kemacha sizning maktubingizni istagan odamingiz yoki jonivorga yetkazib bermoqchi. Kimga xat yozar edingiz? Imkoniyatdan foydalaning!



### 12. Ko'rsatmalar bilan tanishing. Xat yozing.

Boshlanmalardan birini tanlashingiz mumkin:

- |                          |                           |
|--------------------------|---------------------------|
| 1. Assalomu alaykum ...! | 3. Do'stim (dugonam) ...! |
| 2. Salom, mening ...!    | 4. ...!                   |

Unga nimalar haqida aytmoqchisiz?

- |                        |                         |
|------------------------|-------------------------|
| 1. Bilasan(siz)mi, ... | 2. Men xohlardimki, ... |
|------------------------|-------------------------|



### 13. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi xatoliklarni aniqlang va matnni xatosiz ko'chiring.

**Eslatma!** Ushbu matnni tahrir qilishda -ni, -lar qo'shimchalari, bosh harflar imlosi hamda talaffuz bilan imlodagi farqli jihatlaraga e'tibor bering.

Yer *sharini* juda katta qismi, ya'ni 71 *foyizi* suv bilan qoplagan. Bu suvlar *to'rta ulkan okeyan*: *tinch okeyani*, *atlantika okeyani*, *hind okeyani*, *shimoliy muz okeyani* hamda *ko'plap dengiz-u daryo* hissasiga to'g'ri keladi. *Tinch okeyan* hududini o'zi *yer sharini* deyarli yarmini qoplagan.



## BARAKA DARYOSI



Quyida nomi berilgan suv havzalarini tasvirlab bering.  
Ularning o'zaro farqli jihatlari haqida so'zlang. Izohli lug'atdan foydalaning.

ariq

daryo

ko'lmak

anhor

ko'l

okean

dengiz

hovuz



**1. Berilgan so'zlar ishtirokida uchta gap tuzib, yozing.**



**O'zbekiston gerbiga qarang. Savollarga javob bering.**



1. Gerbimizda qaysi daryolar tasvirlanganini bilasizmi?
2. Nima deb o'ylaysiz, nega gerbda aynan shu daryolar tasvirlangan?
3. Tabiatda daryolar qanday paydo bo'ladi?
4. Daryolar tabiatda qanday vazifani bajaradi?



53



**“Baraka daryosi” audiomatnini tinglang. Savollarga javob bering.**

1. Amudaryoning ilk irmoqlari qaysi tog'da hosil bo'ladi?
2. Qadimda Amudaryo qanday ko'rinishda bo'lgan? Odamlar undan qanday foydalanishgan?
3. Nega Amudaryoni “Baraka daryosi” deb ham atashadi?
4. Amudaryo tarixda qaysi dengizga quyilgan?
5. Siz yana qanday daryolarni bilasiz? Bu daryolar qaysi davlatlar hududidan oqib o'tadi?




**2. Amudaryo haqida aytilgan to'g'ri fikrlarni ko'chirib yozing. Noto'g'ri fikrlarni esa tuzatib aiting.**

1	Amudaryo O'rta Osiyodagi eng yirik hamda sersuv anhordir.
2	Amudaryoning uzunligi 2540 kilometrga teng.
3	Ibn Sinoning “Amudaryo tarixi” nomli asari Amudaryo haqidagi tarixiy manba hisoblanadi.
4	O'zbekiston gerbida Amudaryo va Sirdaryo tasvirlangan.
5	Amudaryo Surxondaryo, Buxoro shahri va Qoraqalpog'istonidan o'tib, Orol dengiziga quyiladi.
6	Amudaryoni arablar “Jayxun” deb atashgan.



**Berilgan chizmaga qarab kichik matn tuzing.**






## Ayting-chi, irmoq nima?



### IKKI IRMOQ

(Ertak)

1-qism



Baland tog' etagida paydo bo'lgan buloqlardan yonma-yon ikki irmoq oqib chiqdi. Irmoqlarning biri katta, ikkinchisi esa kichikroq edi. Katta irmoq kuchliroq edi. Yana **toleni qarang!** U oqib borayotgan yo'lida hech qanday to'siq uchramadi. Kichik irmoqning yo'li esa sermashaqqat ekan. Biroz yurganidan keyin kattakon xarsangtoshga duch kelib qoldi. Shunda ham **noumid bo'lmadi**. Yeng shimrib ishga tushdi. Uning **tirishqoqlik bilan** o'ziga yo'l axtarayotganini ko'rgan katta irmoq:

- Ey bechora, shunchalik nimjon ekansan, yo'iga chiqib nima qilar eding, – dedi.
- Og'ayni, bunday gaplarni qo'y, – dedi kichik irmoq. – Undan ko'ra o'ng tomoningdan ozroq joyni **o'pirib yubor**. Menga ham yo'l ochilsin.

– Hoy tirrancha, hali sen **boshqalarning mehnati hisobiga ya-shashni ham bilasanmi? Bor, toshingni ter!** – dedi-da, katta irmoq o'pkasini qo'litiqlab uzoqlarga yugurib ketdi. Bir-biridan yoqimli, bir-biridan chiroyli manzarali va mevali daraxtlar uning **yo'liga peshvoz chiqib**:

- Biz tomondan yur, – deb iltimos qildilar.
- Bilaman, hammangiz tekinxo'rsizlar, yaqiningizga borsam bas, ildizingiz bilan suvimi simirib, **tinkamni quritasiz**, – deya katta irmoq yo'lni chap solib jo'nab qoldi. Oxiri, cho'l-u biyobonda **qumlikning to'shiba bosh qo'ydi-da, halokatga yuz tutdi**.

Kichik irmoq kecha-kunduz timmay mehnat qildi, xarsangtoshning bir yonini yemirib, yana yo'lga tushdi. U yo'l-yo'lakay dov-daraxtlar bilan do'stlashdi. Daraxtlar tomirlari bilan irmoq suvining yer ostiga singib ketishga yo'l qo'yishmadi. Yaproqlari esa quyosh nurini to'sib, suvni bug'lanishdan saqladi. Kichik irmoq ham yashil do'stlarini **qondirib sug'ordi**.

*Habib Po'latov*



1. Katta irmoq nima uchun tez oqa oldi?
2. Daraxtlar nima maqsadda katta irmoq yo'liga peshvoz chiqdi?
3. Katta irmoq nima uchun daraxtlardan qochdi?
4. Katta irmoq qanday halokatga uchradi?
5. Kichik irmoqqa daraxtlar qanday yordam ko'rsatdi?
6. Bunday hodisalar tabiatda rostdan ham sodir bo'lishi mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, qanday sodir bo'ladi?



### Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

- Mevali daraxtlar uning **yo'liga peshvoz chiqibdi**. Mazkur gap mazmuniga o'xhash javoblarni aniqlang.
  - A. Mevali daraxtlar unga norozilik bildiribdi.
  - B. Mevali daraxtlar uni qarshi olibdi.
  - C. Mevali daraxtlar uni yoqtirishmabdi.
  - D. Mevali daraxtlar uni kutib olibdi.

- Matnda ajratib ko'rsatilgan quyidagi bo'laklarning ma'nosini muhokama qiling.

noumid bo'lish

o'pirib yuborish

tirishqoqlik bilan

bor, toshingni ter

boshqalarning mehnati hisobiga yashash

o'pkasini qo'ltilqab yugurish

halokatga yuz tutdi

qumlikning to'shiga bosh qo'ydi

qondirib sug'ordi

toleni qarang

peshvoz chiqmoq

tinkasi qurimoq



## IKKI IRMOQ

### 2-qism

Kichik irmoq quvona-quvona yo'l bosib, **azim daryo** bo'yiga qanday yetib kelganini ham sezmay qoldi. U daryoning **hayqirib oqishi**ni, tog'-u toshlarni ham qo'porib tashlay oladigan qudratini ko'rib hayron qoldi. So'ng **buyuk qudratga suqlanganicha** qirg'oq bo'ylab oqa boshladi.



– **Behuda tentirab yurma**, – dedi unga daryo. – Bironta ko‘lmakka tushib qolsang, suvingni sasitadi. Bordi-yu, qumli cho‘lga chiqib qolsang, **o‘z qa’riga yutib, halok qiladi**. Kel, bizga qo’shil. Birlashib **yengilmas qudratga aylanamiz**.

– Sen buyuk pahlavonsan, – dedi kichik irmoq. – Men qayda-yu, sen qayda. Mening yordamimga muhtoj bo‘lmasang kerak deb o‘ylayman.

– Yo‘q, unday emas. Aslida biz ham senga o‘xshagan kichik-kichik irmoqlar edik. Yo‘l-yo‘lakay birlashib, katta daryoga aylandik.

Irmoq bu so‘zni eshitib, o‘zini daryoga otdi. Uning suvi tezda daryo bilan **bir jon, bir tan bo‘lib ketdi**. Irmoq qo‘shilganidan keyin daryo yanada kuchliroq bo‘lib oldi. U oqib keta turib katta-katta xarsangtoshlarni **bir-biriga urib tolqon qildi**. Hatto ulkan kemalarni pisand qilmay, o‘z yelkasida bemalol ko‘tarib jo‘nadi. Endi uning yo‘lini to‘sadigan har qanday kuch o‘ylab ko‘radigan bo‘lib qoldi.

Odamlar **bu asov kuchni jilovladilar**. Bundan daryo ham norozi emasdi. Chunki uning suvi to‘g‘on tagidagi generatorni yurgizib, yanada qudratliroq kuch hosil qildi. Dasht-biyobonlarga oqib, birorta ham giyoh unmagan **taqir yerni bog‘-u bo‘stonga aylantirdi**.

**Habib Po‘latov**



1. Daryo kichik irmoqqa qanday maslahat berdi?
2. Daryo qanday hosil bo‘lgan ekan?
3. Kichik irmoq daryoga qo‘shilganidan so‘ng, nimalar sodir bo‘ldi?
4. Generatorning yurishidan hosil bo‘lgan kuch nima edi?
5. Bu ertakdan qanday xulosalar chiqarish mumkin?



**Matnda ajratib ko‘rsatilgan bo‘laklarning ma’nosini sinfda muhokama qiling.**

azim daryo

hayqirib oqish

o‘z qa’riga yutish

buyuk qudratga suqlanganicha

taqir yer

behuda tentirab yurish

bir-biriga urib tolqon qilish

bir jon, bir tan bo‘lib ketish

yengilmas qudrat



**Ayting-chi, bu sifatlar odamlarga ham xosmi? Odamlarga nisbatan ham bu so‘z birikmalarini qo‘llash mumkinmi?**



**3. Ertakdan xabar, so‘roq va buyruq mazmunidagi ikkitadan gap ko‘chiring. Tinish belgilariga e’tiborli bo‘ling!**



**“Ikki irmoq” matni asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.**

**1. Matnda uchragan suv havzalarini aniqlab, ayting.**

1. Ko‘lmak. 2. Dengiz. 3. Daryo. 4. Anhor.  
5. Irmoq. 6. Buloq. 7. Ko‘l.

**2. Kichik irmoq ham yashil do‘stlarini qondirib sug‘ordi. Ushbu gapdagi kichik irmoqning “yashil do‘satlari”ni matndan aniqlang.**

- A. Gullar B. Daraxtlar D. Yaylovlар E. Maysalar

**3. Irmoqcha ta’riflagan “buyuk pahlavon” bu – ...?**

- A. Katta irmoq B. Generator D. Buloq E. Daryo

**4. Ertak mazmuniga mos maqollardan ayting.**



**4. Ertakning 1- va 2-qismiga mos keluvchi quyidagi kichik sarlavhalarni ikki ustunga ajratib yozing.**

To‘siksiz yo‘l. Daryoning maslahati. Daraxtlarning iltimosi. Uchrashuv. Katta irmoqning halokati. Tinimsiz mehnat. Daryoning qudrati. Kichik irmoqning do‘satlari. Kuch birlikda.

1-qism uchun	2-qism uchun

**5. Bo‘s sh o‘rnlarni to‘ldiring va ko‘chirib oling.**

— Hoy ... (irmaqcha/tirrancha), hali ... (sen/siz) boshqalar...(-ni/-ning) mehnati hisobiga ... (boyish, yashash)ni ham bilasanmi? ... (Ket/Bor), toshing...(-ni/-ning) ter! – dedi-da, katta irmoq ... (tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib/o‘pkasini qo‘ltiqlab) uzoqlarga yugurib ketdi.

**6. Siz ertakdagи voqeanning odamlar hayotiga qanday aloqasi bor deb o‘ylaysiz? Fikringizni yozing.**





1

\* \* \*

Ne-ne ta'rif,  
tashbeh bitdilar,  
Mangu ilhom,  
mangu imkonsan.  
Ikki daryo oralig'ida  
Jo'shib yotgan ulkan ummonsan.  
Bag'ringni dur-marvardi kabi  
Ezguliklar etmisdir maskan.  
Yomonlig-u yovlar yo'liga –  
Ikki daryo ko'ndalang har dam.  
Boqib bag'rim to'lur ziyoga,  
Sen – ko'zimning oq-qoraligi.  
Alishmasman ikki dunyoga –  
Ikki daryo oralig'in!



2

\* \* \*

Qarang mag'rur tog'larga  
Billur kokil yarashar,  
Pastda o'sha kokilin  
Jilg'achalar tarashar.  
Ular oqar shildirab,  
Shivir-shivir sirlashib,  
Jilg'achalar ketishar  
Keng daryoga birlashib.  
Baland, mag'rur bu tog'lar  
Go'yo uzun karvondir.  
Quyoshjonni tepaga  
Kuzatuvchi narvondir.

*Dilshod Rajab*



*Kavsar Turdiyeva*





## Berilgan sarlavhalar ichidan she'rlarga mosini toping.

O'z tanlovingizni asoslab bering.

- She'rdagi qaysi misraga qarab shu sarlavhani tanladingiz?
- Sizningcha, she'rning mazmuni siz tanlagan sarlavhaga mosmi? Nima uchun?

O'zbekiston

Dur-marvarid

Tog'lar

Billur kokil

Ulkan ummon

Jilg'a



## Muhokama qiling.



1. Sizningcha, qaysi she'rning mazmuni yaxshiroq, pishiqroq? Fikringizni misollar bilan asoslang.
2. Qaysi she'nda qofiyadosh so'zlar mahorat bilan ishlataligan? Asoslab bering.
3. Qaysi she'nda tabiat chiroyliroq tasvirlangan? Tushuntirib bering.



## 7. Berilgan she'riy misralarda "daryo" so'zi qanday ma'noda qo'llanganini aniqlab, yozing.

Mehridaryo ustozim.

Nurlar oqar misoli daryo.

Saxiyligi daryo kabi.

Deydilar: yurgan – daryo.

Daryo bo'lib oqdi ko'zyoshim.



Umr – oqar daryo.





## SALOMATLIK GAROVI



Rasmlarga diqqat bilan qarang. Savollarga javob bering.

1



2



3



1. Dasturxonlardagi yemaklar nomini ayting.
2. Qaysi rasmida nonushta dasturxoni tasvirlangan? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?
3. Tushlik uchun qaysi dasturxon atrofida o'tirgan ma'qul? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?
4. Kechki ovqat uchun eng mos dasturxon qaysi? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?



1. Dasturxonlardagi yemaklar nomini namunadagi kabi jadval tuzib, yozing.

1-dasturxon	2-dasturxon	3-dasturxon



1. To'g'ri ovqatlanish deganda nimani tushunasiz?
2. Yegan ovqatimiz bizni kasal qilishi mumkinmi? Sizda hech shunday holat bo'lganmi?



Qoidalarni o'qing. Qaysi rasmdagi mahsulotni ko'p iste'mol qilish zarar ekanini o'rganing.

**1-qoida:** fastfuddan butunlay voz kechish lozim. Shirinliklarni ko'p iste'mol qilish semizlik, qandli diabet kabi kasalliklarga sabab bo'ladi.

**2-qoida:** har kuni kamida 1,5–3 litr suv qiling. Choy, qahva yoki sharbatlar suv o‘rnini bosa olmaydi. Gazlangan shirin ichimliklar iste’moli butunlay taqiqlanadi, chunki ular tarkibida juda ko‘p shakar bor.

**3-qoida:** nonushtaga tuxum yoki tvorog iste’mol qilish. Tuxum hamda tvorog oqsilga boy. Oqsil mushaklarimizni mustahkam qiladi, ancha vaqtgacha qornimiz ochmasligini ta’minlaydi.

**4-qoida:** har kuni yangi sabzavot yoki mevalardan yeng. Mevalarda tanamiz uchun kerakli vitaminlar juda ko‘p.

**5-qoida:** pomidor va bodringni aralashtirmang. Bodring hamda pomidorni to‘g’rab, aralashtirib salat tayyorlash tavsiya etilmaydi. Shunday qilinsa, ulardagi C vitaminidan asar ham qolmaydi.



**Rasmlardan zararli mahsulotlarni ko‘rsating. Ularni qaysi qoidaga ko‘ra zararli demoqdasiz?**



**2. “Mening zararli odatlarim” mavzusida matn tuzing. Unda yuqorida keltirilgan qaysi qoidani buzib turishingiz haqida yozing.**



1. Narsalarni aralashtirib yeish zararli ekaniga ishonasizmi?
2. Sizningcha, ko‘p ovqat yeb qo‘ysa, nima bo‘ladi?
3. Biror marta qorningiz og‘rib qolganmi? Sababi nima edi?
4. “Nafshi tiyish” deganda nimani tushunasiz?

## NAFS BALOSI

Orif kelib maktabdan,  
Tushlik uchun o'tirdi.  
Voz kechmasdan qatiqdan,  
Pok-pokiza tushirdi.

Qatiqni ko'rgach "baham",  
Navbat palovga yetdi.  
Hayallamay palov ham  
To'g'ri qoringa ketdi.

Mo'ralab ishkomlardan  
Uzumlar turardi jim.  
Ikki boshi ulardan  
Qayoqqadir bo'ldi zim.

Oshxonada bir qovun  
Turibdi bo'lib "asal".  
Uni yegandan keyin  
Orifboy bo'ldi kasal.

Qorni og'rib bir zumda,  
Chiday olmay yig'ladi.  
Axir ayb ham o'zida,  
Nafsin sira tiymadi.

Orif kabi kimda-kim  
Kirsa nafsin so'ziga,  
Shak-shubhasiz, u mahkum  
Qasd qilmoqqa o'ziga.

Agar sihat tilasang,  
Hech qachon ko'p yemagin.  
Orifga o'xshab qolsang,  
Keyin afsus qilmagin.

***Abdulla Po'latov***



1. Orif nonushta qilayotgan edimi? Javobingizni isbotlang.
2. Orif birinchi bo'lib nima yedi?
3. Orifning kasal bo'llishiga sabab qovun edimi? Javobingizni isbotlang.
4. Orif qanday kasalga yo'liqdi?
5. Sizningcha, she'r nima uchun "Nafs balosi" deb nomlangan?



She'rdagi qaysi birikmalar yemoq ma'nosini bildiryapti?

pok-pokiza tushirdi

tushlik uchun o'tirdi

navbat palovga yetdi

ko'rgach baham

nafsin sira tiymadi

qayoqqadir  
bo'ldi zim

to'g'ri qoringa ketdi

mo'ralab ishkomlardan



3. She'rdagi qaysi so'zlar narsani, qaysi so'zlar harakatni bildirishini ikki ustunga yozing.

Narsani bildiruvchi so'zlar	Harakatni bildiruvchi so'zlar
qovun	yig'ladi



1. Ovqatlanishda ham odob-axloq qoidalari bo'lishi mumkinmi?
2. Dasturxon atrofida kattalar sizga tanbeh berishganmi? Nima uchun?



**Audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.**



1. Ovqatlanishdan oldin nima qilish kerak?
2. Nega ovqatlangandan keyin ham qo'lni yuvish kerak?
3. Ovqat yeyishni xohlagan odam boshlab beraveradimi?
4. Nega dasturxondan turayotganda kattalardan ruxsat so'ralsadi?



**Audiomatn uchun eng mos sarlavhani tanlang. Nima uchun shunday deb o'ylaysiz? O'zingizda qanday taklif bor?**

Ovqatlanish qoidalari

Men odobliman

Dasturxon atrofidagi xulq

Ovqatlanish tartibi


Ovqatlanish odoblari

Salomatlik sirlari



**4. Audiomatn hamda rasmlar asosida gaplar tuzib, yozing. Gaplarni qoida shaklida yozishga harakat qiling. Rasmda tasvirlanmagan holatlarni ham yozishingiz mumkin.**





1. Ertaklarda tulki qanday qahramon sifatida tasvirlanadi?
2. Odamlarni ham tulki desa bo'ladimi? Qanday odamlarni tulki deyish mumkin?



**Ertakni o'qing. Savollarga javob bering.**

## TULKI BILAN LAYLAK

**(Ertak)**

Kunlardan bir kuni tulki laylakni ziyofatga chaqiribdi. Tulki shavla pishirib, laganga suzib o'rtaga qo'yibdi. Laylak tumshug'ini laganga uribdi, ammo unga hech narsa ilinmabdi.



Laylak qancha urinmasin, hech narsa yeya olmabdi. Tulki lagangagi shavlaning hammasini o'zi yeb tugatibdi. Laylak ochdan o'lar holda uyiga qaytibdi.

Ertasi kuni laylak tulkini mehmonga chaqiribdi. Laylak suyuq ovqat qilibdi-da, ko'zaga quyib dasturxonga tortibdi. Tulki bo'ynini cho'zib harchand urinsa ham, ko'zadagi ovqatdan yeya olmabdi.

Laylakning bir o'zi ovqatni ichib, qornini to'yg'azib olibdi. Tulki: "Ha, boplading-ku", debdi ichida.



1. Laylak nima uchun tulkining uyida ovqatlana olmadi?
2. Laylak nima uchun ovqatni ko'zada berdi?
3. Tulki nega: "Ha, boplading-ku", deb ichida aytdi? Ovoz chiqarib aytsa, nima bo'lardi?



**Quyida har bir so'zning ikkitadan ma'nosi berilgan. Ertakda ularning qaysi ma'nosi qo'llanganini toping.**

### Chaqirmoq

o'ziga qaratish maqsadida nomini yoki ismini aytish

taklif qilish, biror joyga kelishga undash

### Suzmoq

qo'l yoki oyoqni qimirlatib suvda harakatlanish

tayyor yegulikni idishga taqsimlab solish

### Qo'yimoq

qo'lidagi narsani biror joyga o'rnatishim

biror ishni bajarish uchun ruxsat bermoq

### Tortmoq

biror yeridan ushlab o'zi tomon surish yoki surishga harakat qilish

ulashish, tarqatish, qo'yish



Ba'zi so'zlarning bir necha ma'nolari bo'ladi. Ularning qaysi ma'nosi ishlatilganini faqat vaziyatga qarab aniqlash mumkin.



**5. Gaplarni diqqat bilan o'qing. Ajratilgan so'zlarning yuqoridagi ma'nolaridan qay biri ishlatilganini aniqlab, daftaringizga yozing.**

Daryoning shu joyi keng emas ekan, kel, **suzib** o'tamiz.  
Nusratbek palovni **suzib**, ikki laganni qo'lida ko'tarib keldi.

Polovni **tortib** bo'ldik, endi navbat mevalarga.  
Gavhar Mansurning qo'lidan ushlab **tortdi**.

Salima qo'lidagi kitoblarni deraza tokchasiqa **qo'ydi**.  
Bektemir boshqalarni gapirishga **qo'ymay** faqat o'zi gapirdi.

Karimni buvisi **chaqirdi**, u uyiga kirib ketdi, afsus, yana biroz to'p tepmoqchi edik.

Olima o'zining dugonalarini, sinfdoshlarini mehmonga **chaqirdi**.



**6. Mavzudan o'rganganlaringiz haqida matn yozing. Matningizda quyidagi savollarga javob bo'lishiga e'tibor qarating.**




1. Nimalarni o'rgandingiz?
2. Sizga qanday ta'sir qildi?
3. Mavzudagi qaysi jihat sizda ham mavjud?
4. Qaysi odatingizni o'zgartirishga qaror qildingiz?
5. Boshqalarga nimani tavsiya qilasiz?





Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.



1. Rasm nima haqida?
2. Qanday vitaminlarni bilib oldingiz?
3. Qanday mahsulotlarda A vitamini bor?
4. Bاليقda qanday vitaminlar bor?
5. C vitamini qaysi mahsulotlarda uchraydi?
6. Qo‘ziqorinda qanday vitaminlar bor?
7. Nonda ham vitamin bormi?
8. Tuxumda qanday vitaminlar bor?
9. D vitamini qaysi mahsulotlarda uchraydi?
10. Ayting-chi, bu vitaminlarning inson salomatligiga qanday ta’siri bor?



**1. Berilgan vitamin turlari qaysi mahsulotlar tarkibida uchrashini yozing.**



**2. Ushbu mahsulotlarning foydalari haqida gaplar tuzib, yozing.**



## VITAMINJON

### 1-qism

Bir kuni A vitamini yo'lga chiqibdi. Uzoq yo'l yurib, muzlatkichga tushibdi. Uni avval yaxlatishibdi, keyin bo'laklashibdi. Qozonga solib qovurishibdi. Yarimjon vitaminni likopchaga solib, ko'katlar bilan bezatib, Olimjonning oldiga qo'yishibdi. Biroq Olimjon A vitaminiga **qiyo ham boqmabdi**. Aksincha, burnini jiyirib: "Menga baliq yoqmaydi", deb likopchani surib qo'yibdi.

A vitamini juda xafa bo'libdi. Ko'zlarini mo'ltiratib **chimxo'r** do'stiga qarabdi. Qarabdi-yu, hafsalasi pir bo'libdi. Chunki Olimjon ozib-to'zib ketgan, rangpar, qoqsuyak bola ekan-da. A vitamini bola nega bu ahvolga tushganini darrov fahmlabdi.



Shu payt buvisi Olimjonni aldab-suldab bir bo'lak baliq yediribdi. A vitamini dumalab ko'rimsizgina, qop-qorong'i joyga tushibdi. Bu joy Olimjonning oshqozoni edi. Sho'rlik vitamin **bitta-yarimta** do'stimni uchratib qolarman deb rosa yo'l yuribdi. Onda-sonda beli bukri C vitaminiga, hassaga tayanib qolgan D vitaminiga, horib-tolib yo'l chetida cho'kkalab o'tirgan E vitaminiga duch kelibdi. Ularning hech biri Olimjon haqida iliq fikr aytmabdi.

– Juda tanbal, uyquchi, nimjon bola, – gap boshlabdi C vitaminini.  
– Ertalab nonushta qilmay mакtabga jo'naydi. Tushlik bo'lmasidan do'konga kirib, yarimtayyor mahsulotlar bilan "qornini aldaydi".

D vitaminini ham jim qarab turmabdi:

– Yeganlari bizning safimizga qo'shilish o'rniga, aksincha, bizga **qiron keltiradi**. Gamburgerlar, qadoqlangan turli xil kekslar, bodroq va gazli ichimliklar... axir, bular **koni zarar-ku**!

– Ustiga-ustak, ko'zлari ham xiralashyapti. Yaqin orada ko'zoynak taqishi mumkin, – debdi C vitaminini.

– Eh, unda men juda kerak ekanman-ku, – achinib gapiribdi A vitaminini. – A vitaminini kamayib ketgan bolalarda ko'rish qobiliyati susayadi. Men petrushka, shivit, shovul, ismaloqda ko'p uchrayman. Afsus, Olimjon ularni juda yomon ko'radi. Ayniqsa, oyisi sho'rvaga solgan sabzilardan "qo'rqadi". ularni qoshiqda terib chiqadi. Xom sabzini karsillatib yeyishga ham tobi yo'q, "tishim og'riydi", deydi. Chunki tishlari qurtlab ketgan. Qiziq, ularni rostdan ham qurt yeb ketganmikan?!

– Olimjon men bilan yaxshi chiqishmaydi-da, – javob bera boshlabdi D vitaminini. – Men suyak hosil bo'lishida ishtirok etaman. Bo'y o'sishi uchun juda zarurman. Men bo'lmasam, odam behol bo'lib, ko'p terlaydi, tez-tez shamollaydi, tishlari qurtlaydi.

*Umida Sadatova*



1. A vitaminini nega xafa bo'ldi?
2. A vitaminini C va D vitaminlari bilan qayerda ko'rishdi?
3. C vitaminini nimadan xavotirga tushdi?
4. Olimjon haqida fikr bildiring.
5. Ajratib ko'rsatilgan so'з va iboralarning ma'nosini lug'atdan aniqlang.



**3. Berilgan so‘z va birikmalarni ularning izohi bilan moslashtirib ko‘chiring.**

**A Yaxlatmoq**

**1 Ko‘ngli qolmoq**

**B Hafsalasi pir bo‘lmoq**

**2 Pasaymoq**

**D Fahmlamoq**

**3 Muzlatmoq**

**E Susaymoq**

**4 Saqlamoq**

**5 Tushunmoq**



**4. A, D, C, E vitaminlarining xususiyatlarini yozing.**

**Namuna** *D vitamini bo‘y o‘sishi uchun juda zarur.*



## VITAMINJON

### 2-qism


Olimjon kasal bo‘lganda haftalab yotib qolar ekan. **Immuniteti** oddiy gripp bilan kurashishga ham yaramas ekan. **Antibiotiklar** qabul qilishga majbur bo‘larkan. Natijada ichaklaridagi ko‘plab foydali **bakteriyalar** nobud bo‘lar ekan.

– Yaqinda Olimjonni shifokorga olib borishdi. U shifokorning aytganlariga amal qilsa, tez orada tanasi kuchga to‘lib, sog‘lom bola bo‘ladi, – dedi D vitamini.

– Shifokor nima dedi? – shoshib so‘radi A vitamini.

– Ertalab sutli bo‘tqa yeyishi kerak ekan. Tuxum sarig‘i yoqmaydi demay, ko‘p yeb turishi zarur. Oyisi nonga surtib qo‘ygan sariyog‘dan bir tishlab qo‘yish juda muhim. Aslida, kamqonlik kasaliga **duchor bo‘lishi** ham shundan ekan.

– Men ham shifokordan o‘rganganlarimni aytib bersam, – suhbatga qo‘shildi E vitamini. – Kamqonlik – qon tarkibida **gemoglobinning** kamligini bildiradi. Gemoglobin temir moddasidan tashkil topgan bo‘lib, u tanadagi barcha a’zolarga **kislorod** yetkazadi va kuch-quvvat bilan ta’minlaydi. Olimjondagi quvvatsizlik shundan. Ovqatlanish



paytida meva va sabzavot sharbatlari, na'matak damlamasidan ichsa, tanasida **vitaminlar** ko'payar ekan.

– Shifokor yana aytdiki, – davom etdi E vitamini, – Olimjonga men ham ko'proq kerak ekanman. E vitamini tibbiyotda kislorod vitamini deb ataladi. Chunki u **organizmimizni** kislorod bilan ta'minlaydi. Kuygan, kesilgan joylarning chandiqsiz va tez bitishi mening zimmamga yuklatilgan. Ayniqsa, o'g'il bolalar uchun zarurman. Chunki mushak tolalarining mustahkam bo'lishi, xuddi **sportchilar** mushagidek baquvvat bo'lishiga yordam beraman. Tuxum E vitamining koni hisoblanadi. Ko'pchilik bolalar yoqtirmaydigan ko'katlar, boshqoli don mahsulotlarida ko'p bo'laman.

– Eh, bularning barini Olimjon bilishi shart! – kuyinib so'zlandi D vitamini. Menda ajoyib g'oya bor! Kelinglar, bugun uning tushiga kirib, barini so'zlab beramiz.

– Aqlingga tasanno! Kelishdik!

*Umida Sadatova*



1. Olimjon nima uchun haftalab kasal bo'lar ekan?
2. Antibiotik nima? Sizga ham shifokor antibiotik tavsiya qilganmi?
3. D vitamini bilan A vitaminining suhbatini aytib bering.
4. E vitamini qanday ma'lumotlarni aytди?
5. Ayting-chi, vitaminlar Olimjonning tushiga kirib, nima degan bo'lishi mumkin?



**5. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni talaffuz qiling va daftaringizga yozing. Talaffuz va yozuvda qanday farqni sezdingiz?**

**6. Berilgan so'zlarni namunadagi kabi bo'laklarga ajratib yozing.**

**Namuna** foydali – foyda+li, ...

shifokor	sutli	haftalab	quvvatsiz
boshogli	so'zla	baquvvat	tishla
sportchi	ko'pchilik	chandiqsiz	



**7. Olimjon qanday bola? Uning sifatlarini jadvaldan ajratib yozing.**

a'luchi	chimxo'r	kamgap	qaysar	qoqsuyak	kamquvvat
mehnatkash	tanbal	rangpar	baquvvat	erkatoy	ozg'in
nimjon	uyquchi	pahlavon	maqtanchoq	chaqqon	

**8. Olimjonning zararli odatlarini yozing.**

**Namuna** Olimjon – chimxo'r, ovqatni tanlab yeydi, foydali mahsulotlar bilan ovqatlanishni yomon ko'radi.

**9. Tarkibida A vitamini bor ko'katlar rasmi berilgan. Ularning nomini yozing hamda foydali jihatlari haqida o'zaro bahs yuriting.**





## Topishmoqlarning javobini toping. Ushbu mahsulotlarning foydali jihatlari haqida fikr bildiring.

1 Qat-qat to'nim bordirov,  
Kimdир to'nga zordirov.  
Bargim yashil, so'limgan,  
Zo'r ketaman do'limga.


2 Beqasam to'n egnimda,  
Doim yal-yal yonaman.  
Pichoq ursang, karsillab  
Ikki palla bo'laman.



## BOZOR

Dehqon bozor **rastasi** –  
Ranglarning guldastasi.  
Mevalar xo'p terilgan,  
Go'zal shakl berilgan.  
Qovun, tarvuz, sabzavot –  
Tabiatdan bir **ijod**.  
Ko'rgan ko'zi quvnaydi,  
Ne olsam deb o'ylaydi.  
Qizil **bulg'or**, pomidor,  
Xohlasang, yashilin ol.  
Olov rangli xurmolar  
Bunchalik **serjilolar**.  
Piyozlarga bir qarang,  
Ular o'zi uch xil rang.  
Nok, uzum, anjir, olma,  
Ranglardan charchab qolma.  
Baqlajon **tusi** siyoh,  
Anor – to'q qizil bo'yoq.  
Yashil rangli bodring  
Go'yo der: "Beri keling".  
Sabzilar – oltin **qoziq**,  
Sarig'i ham zo'r oziq.  
Olgan qilmaydi armon:  
Bari tabiiy **darmon**.  
Bozor – ochildasturxon,  
Yashasin bobodehqon!

**Kavsar Turdiyeva**





1. Tabiatning ijod mahsuli nima ekan?
2. She'rda qanday sabzavot va poliz ekinlari ta'riflangan?
3. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini lug'atdan aniqlang.
4. She'rdagi ranglar nomini ayting. Bu ranglarni yana qanday ataymiz?



### 10. She'rda tilga olingan tabiiy darmonlarni jadvalga namunadagi kabi joylashtiring.

Poliz ekinlari	Sabzavotlar	Mevalar	She'rdagi tasviri yoki sizning ta'rifingiz
		anor	to'q qizil bo'yog'



11. Ayting-chi, siz qaysi mahsulotlarni ko'p iste'mol qilasiz? Ularni ikki ustunga yozib ko'ring. Ular foydalimi yoki zararli?



12. O'rganganlaringiz asosida jadvalni namunadagi kabi to'ldiring.

Vitamin	Foydali jihatlari	Qanday kasallikda foydali sanaladi?	Qanday mahsulotlar tarkibida uchraydi?
A vitaminini			
D vitaminini			
E vitaminini			



13. "Vitaminjon" hikoyasi asosida Olimjonning kasallik varaqasini to'ldiring.


Bemor (F. I. O.):	
Kasallik nomi:	
Kasallik tavsifi:	
Sababi:	
Davolash uchun tavsiyalar:	



## TABIATNI ASRAYMIZ



Ozon qatlami haqidagi audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.



1. Ozon qatlamining eng asosiy vazifasi nima?
2. Nega ozon qatlami ko'zga ko'rinnmaydi? U qayerda joylashgan?
3. Quyosh tizimida nechta sayyora bor? Ularda hayot yo'qligining asosiy sababi nimada?
4. "Ona sayyoramiz "krem" va "ko'zoynak"dan foydalanadi", degan gapni qanday tushundingiz?
5. Ozon qatlamini saqlab qolish uchun nimalar qilish kerak deb o'ylaysiz?



**1. Matnda uchragan quyidagi so‘zlarni bir necha marta ta-laaffuz qiling va yozing. So‘zlarning izohini lug‘atdan bilib oling.**

ozon

atmosfera

molekula

xlor

ftor

brom

muzlatkich

sovitkich

freon

krem

**2. Audiomatnga asoslangan holda to‘g‘ri fikrlarni ko‘chirib yozing.**

- |   |   |
|---|---|
| 1 | Ozon qatlami Yer haroratining bir maromda bo‘lishini ta’minlab beradi.                      |
| 2 | Atmosferada ozon miqdori juda ko‘p, chunki u Yerimizni o‘rab olgan.                         |
| 3 | Quyosh sistemasida 8 ta sayyora bo‘lib, ularning ayrimlarida xuddi Yerdagidek hayot mavjud. |
| 4 | Ozon qatlamining yemirilishiga odamlar sabab bo‘lmoqda.                                     |
| 5 | Havo sovitkichlaridan kamroq foydalanish ozon qatlamini saqlab qolishga yordam beradi.      |



**Rasmlarga diqqat bilan qarang. Savollarga javob bering.**

(1)



(2)



(3)



(4)





1. 1-rasm haqida munosabat bildiring. Bolalar nima uchun bunday harakat qilishyapti?
2. 2-rasmdagi manzara sizda qanday taassurot qoldirdi? Nima uchun?
3. 3-rasmda atrof-muhitga salbiy ta'sir qilayotgan narsa nima? Uni qanday bartaraf etish mumkin deb o'ylaysiz?
4. 4-rasmni izohlang. Sizni nima tashvishga solyapti?
5. Siz ushbu rasmlar qatorida yana qanday manzara turishi kerak deb hisoblaysiz? Nima uchun?
6. "Tabiatni muhofaza qilish" deganda nimani tushunasiz? "Muhofaza" so'zi o'rnila yana qaysi so'zlarni ishlatsishimiz mumkin?



### 3. Tabiat bilan bog'liq qanday so'zlarni bilib oldingiz? Yozing.

**Namuna** atrof-muhit, ...



### 4. Tabiat muhofazasi bilan bog'liq harakatni ifodalovchi so'zlarni yozing.

**Namuna** asrash, ...




## INSON NIMA UCHUN HAMMADAN KUCHLI?

Kunlardan bir kuni qirg'ovul soy bo'yiga suv ichish maqsadida kelibdi. Suv muzlab qolgan ekan, uni tumshug'i bilan teshib, ozroq suv ichibdi. Biroq shu ozgina vaqt ichida qanoti muzga yopishib qolibdi.

- Ey muz, juda kuchli ekansan-ku! – xitob qilibdi qirg'ovul.
- Yo'g'-e, – javob beribdi muz, – mendan yomg'ir kuchli. Qachon yomg'ir yog'sa, men shu zahoti eriy boshlayman.

Bu suhbatni ko'kdagi bulutlar bag'rida eshitib turgan yomg'ir ham tilga kiribdi:

- Nahotki, men kuchli bo'lsam? Yo'q, yer ancha kuchli. Qancha ko'p yog'may, u meni o'ziga shimib oladi, – debdi.



Shunda yer tilga kirib:

- O'rmon mendan kuchli. U mening ustimda turadi, tomirlarini suqib vujudimdagi bor quvvatni so'rib oladi, – debdi.
- Yo'q, mening kuchim uncha ko'p emas, – debdi o'rmon. – **Olov** mendan kuchli. U **alanga** olsa bormi, ho'l-quruq baravar yonadi!

Bu so'zlarni eshitgan olov shunday debdi:

- Men shamoldan qo'rqaman. U meni osongina o'chirishi mumkin.
- To'g'ri, men daraxtni ildizi bilan qo'porishim, alangani bir zumda o'chirishim mumkin, – debdi shamol. – Lekin bir oddiy maysaning oldida ojizman. Qanchalar kuchli esmay, u qaddini tiklab olaveradi. Menimcha, maysa hammadan kuchli!

Bunga maysa e'tiroz bildiribdi:

- Menda hech qanday kuch yo'q. Qo'y meni yeb qo'yadi-ku! Shuning uchun qo'y hammadan kuchli bo'lsa kerak.

Buni eshitgan qo'y bosh chayqabdi:

- Menda qanday kuch bo'lsin? Bo'ri kelib qolsa bormi, dumbandan ayrildim deyavering! Yaxshilab o'ylab ko'ring! Hammadan kuchli o'sha emasmikan? – debdi.

Birdaniga bo'ri paydo bo'lib qolibdi.

- E, sizlar hech narsani bilmaysizlar, – debdi u. – Dunyoda **inson** hammadan kuchli! U qirg'ovullarni tutadi, muzni eritadi, yomg'irga ham bo'sh kelmaydi, yerni chopadi, o'rmonni kesadi, olovni o'chiradi,

shamolni o'ziga bo'ysundiradi, maysa-o'tlarni o'radi, qo'yni so'yadi, biz bo'rilarni ham otib o'ldiradi.

Bularning barini eshitgan inson debdi:

– Yo'q, adashasiz, aslida birimiz ikkinchimizdan kuchli emasmiz. Men sizlardan kuchli bo'lishim mumkin. Lekin ko'magingizga doim muhtojman. Siz qiladigan ishlarni men bajara olmayman. Birortangiz bo'lmasangiz, men o'z kuchimni yo'qotaman. Demak, tabiatdagi hamma narsa bir-biriga zanjirdek bog'langan. Biz faqat birlashsakkina, kuchli bo'la olamiz.

### Xalq ertagi



1. Ayting-chi, kim kuchli ekani haqidagi bahs nimadan boshlandi?
2. Muz nima uchun yomg'irni o'zidan kuchli deb bilarkan? Yomg'ir-chi?
3. Yer o'rmonning kuchli ekaniga nimani sabab qilib ko'rsatibdi? O'rmon-chi?
4. Alanga nimadan qo'rkar ekan? Alanganing oddiy may-sadan ham kuchsizligini izohlang.
5. Qo'y kuchlimi yoki bo'ri? Nima uchun?
6. Nima uchun inson dunyoda hammadan kuchli ekan?
7. Qanday qilib tabiat bilan zanjirdek bog'lanish mumkin?
8. Ayting-chi, aslida hammadan ham kuchli inson qanday bo'lishi kerak?



### 5. Suhbatdoshlarga so'roq bering va ularni jadvalga to'g'ri joylashtiring.

Shaxs	Tabiat hodisalari	Jonzotlar	Narsalar
		qo'y (nima?)	



- Ayting-chi, matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qanday ma'nodoshlari bor?

- Ertak bilan tanishgach, qanday xulosa chiqardingiz? Qaysi hukmlarga qo'shilasiz?

- Inson hamma narsadan kuchli.
- Tabiatga faqat insonlar zarar yetkazadi.
- Tabiat hodisalari insonga bo'ysunadi.
- Dunyodagi barcha jonzotlar odamdan qo'rqadi.
- Odamlar kuchini tabiatni asrashga sarflashi kerak.



### 6. Ertak asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

- Matndan harakatni bildirgan so'zlarni quyidagi tartibda ko'chirib oling: suv muzlaydi.

*Qirg'ovul ..., yomg'ir ..., yer ..., o'rmon ..., olov ..., shamol ..., maysa ..., inson ... .*

- Ajratilgan so'zlar o'rniغا mos birliklardan birini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

- Bunga maysa e'tiroz bildiribdi.*
  - Daraxtni ildizi bilan qo'porishga, alangani o'chirishga **qurbim** yetadi, – debdi shamol.
  - Sen, muz, juda kuchli ekansan-ku! – **xitob qilibdi** qirg'ovul.
  - Hammadan kuchlisi inson ekani barchaga **ayon** bo'libdi.
- Qo'yish uchun:** debdi, norozilik, ma'lum, kuchim, gapiribdi, qarshi fikr, quvvatim, aniq.

- Ertakdan olgan xulosangizni yozing.



## BOG'IM

Dunyoni bog' etishni  
Orzu qilar odamlar.  
Daraxt ekish sirlarin  
O'rgatdilar dadamlar.

O'yib bir **gaz** chuqurcha,  
Nihol ekdim avaylab.  
Parvarish qildim dildan  
Unga mehrimni boylab.

Ko'kka cho'zib qomatin  
Quloch yozar shoxlari.  
O'sishidan zavqlanib  
Yana mehr boyladim.

Chaman bo'lib ko'rindi  
Har bir daraxt,  
Har bir shox.  
Ko'ring, qanday chiroyli  
O'zim **bunyod** qilgan bog'.

*Habib Rahmat*



1. Odamlar nimani orzu qilarkan? Nima uchun?
2. Qahramonimiz niholni qanday qilib parvarishlabdi?
3. Buni unga kim o'rgatibdi? Sizga ham kimdir nihol ekish yoki gul parvarishlashni o'rgatganmi?
4. Qahramonimiz nimadan zavqlandi?
5. "Mehr boyladim" deganda nimani tushundingiz? Yana kim yoki nimaga mehr beramiz?
6. *Bunyod* so'zining ma'nolarini aniqlang.

Gaz – qadimgi uzunlik o'lchovi. Bir gaz 71 santimetrga to'g'ri keladi.



7. She'rdagi qofiyadosh so'zlarni yozib oling.
8. Quyidagi so'zlarning qanday ma'nodoshlari bor?  
Topib, yozing.

**Namuna** ko'k – osmon, samo; ...

nihol

odam

orzu

chiroyli



9. She'rdan qanday xulosa chiqardingiz? Bitta gap bilan ifodalang.



83



## 10. "Tabiatni qanday asrashimiz mumkin?" mavzusida xat yozing.

Ushbu rasmlar va xat boshlanmasidan foydalanishingiz mumkin.



### Boshlanmalardan birini tanlashingiz mumkin:

1. Bolalar, tabiatni asrashimiz zarur. Qanday qilib deysizmi? Buning uchun...
2. Do'stim (dugonam) ...! Men senga tabiatni asrash haqida tavsiyalarimni aytib o'tmoqchiman.... .
3. ...! Bilasanmi, nima uchun tabiatni asrashimiz kerak? Chunki...

**Eslatma!** Gaplarni to'g'ri tuzing. Tinish belgilarini o'z o'rnila qo'llang. Gaplarni to'g'ri va chiroyli yozing.



## 11. Yozgan xatingizdan harakatni bildirgan so'zlarni aniqlang va belgilang.



**Namuna** Men senga tabiatni **asrash** haqidagi tavsiyalarimni aytib o'tmoqchiman.



## VIRUS NIMA?



Rasmdagi holatlarga izoh bering. Virusdan saqlanish uchun ularning qay biriga amal qilish, qay biriga amal qilmaslik kerakligi haqida so‘zlang.



1. Gripp yoki Covid-19 kabi viruslar haqida nimalarni bilasiz?
2. Virusdan himoyalanish uchun yana qanday choralarni ko‘rish mumkin?
3. Viruslar ko‘proq qanday joylarda bo‘ladi?
4. Virus bilan kasallanishning oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?



Berilgan so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing va yozing.

*virus*

*vaksina*

*gripp*

*COVID-19*

*bakteriya*

*antivirus*

*karantin*

*pandemiya*



## 1. Rasmlarga qarang. Karantin paytida vaqtini mazmunli o'tkazish uchun tavsiyalar yozing.



## SEN MENING QAHRAMONIMSAN

### 1-qism

Saraning qahramoni – o'z onasi. Chunki u eng yaxshi ona. Qolaversa, dunyoga mashhur olma. U koronavirusga qarshi davo izlab, kecha-yu kunduz tinim bilmaydi.

Kunlardan bir kuni Sara onasidan so'radi:

- COVID-19 virusining ko'rinishi qanday?
- COVID-19 yoki koronavirus shu qadar kichkinaki, ko'zga ko'rinnaydi, – javob berdi ona. – Virusga chalingan odamlar yo'talganda, aksirganda va atrofdagi buyumlarga qo'l tekkizganda kasallik tarqab ketadi. Uni yuqtirib olganlarda isitma va yo'tal paydo bo'ladi.
- Virus ko'zga ko'rinnagani uchun unga qarshi kurashib bo'lmaydimi?

– Koronavirusga qarshi kurashish mumkin, – javob berdi ona. – Beparvo bo‘lmasang, o‘zingni va boshqalarni ehtiyoj qilsang, virus sekin-asta ortga chekinadi, – ona shunday deb qizini bag‘riga bosdi.

– Sara, sen mening qahramonimga aylanishing kerak.

Tun. Sara xayol surib yetarkan, o‘zini hech bir qahramonga o‘xshata olmadi. U mакtabga borishni, do’stлarini ko‘rishni xohlar, ammo bu xavfli edi. Sara koronavirus daf bo‘lishini, olamni ortiq qo‘rqtmasligini istardi.

– Qahramonlar super qobiliyatga ega bo‘ladi, – dedi u o‘z-o‘ziga. – Menda-chi, qanday super qobiliyat bor?

Qizaloqning bu gapidan so‘ng, qorong‘ilik ichidan kimdir uning ismini aytib chaqirdi.

– Bu yerda kimdir bormi? – biroz qo‘rqib ketgan Sara asta shivirladi.


– Sara, qahramon bo‘lishing uchun senga nima kerak? – so‘radi noma’lum ovoz egasi.

– Men dunyodagi barcha bolalarga koronavirusdan himoyalanish uchun nimalar qilish kerakligini so‘zlab berishni istayman. Buning uchun men ga ucha oladigan, baland ovozda gapiradigan kuchli yordamchi kerak!

Shunda hushtak ovozi eshitildi. Oy nurlari ostida g‘aroyib maxluq paydo bo‘ldi.

– Sen kimsan? – hayratlanib so‘radi Sara.

– Men Ario bo‘laman, – deb javob berdi maxluq.



1. Sizningcha, Saraning onasi qanday olima? U nima ishlar qiladi?
2. Sara nima uchun qahramon bo‘lishni istaydi?
3. Super qahramonlar haqida nima bilasiz?
4. Saraga qanday yordamchi kerak?
5. Nima deb o‘ylaysiz, hikoyaning davomi qanday kechadi?



## "Sen mening qahramonimsan" hikoyasining 2-qismini tinglang.



1. Siz Arioni qanday tasavvur qilyapsiz? U suratdagi max-luqqa o'xshaydimi?
2. Ario Saraga: "Men doim sening yuragingda yashaganman", deganda nima demoqchi bo'lgan?
3. Piramidalar qaysi mamlakatda joylashgan? Salem qayerlik bola?
4. Nima uchun Salem Saraga hamrohlik qildi?
5. Sara va Salem yuqoridan turib bolalarga nimalarni aytgan deb o'ylaysiz? Ular aytgan gaplarni xuddi ulardek aytib ko'ring-chi.



**Karantin vaqtida nimalar qilganingiz haqida so'zlab bering.**





## SEN MENING QAHRAMONIMSAN

### 3-qism

Ular bir zumda kichik bir qishloqqa yetib borishdi. U yerda hovlisi-dagi gullarga suv quyayotgan qizni ko'rishdi.

- Salom, Sasha, – dedi Ario.
- Salom, qadrdon do'stim, – javob berdi qiz.
- Afsuski, qo'l berib ko'risha olmaymiz, – dedi Ario, – seni masofadan turib bag'rimga bosaman.

Ario shunday deb qanotlarini xuddi birovni quchoqlagandek harakatlantirdi. So'ng dedi:

- Yangi do'stlarimga sening super qobiliyatning haqida so'zlab berdim.
- Nahotki menda super qobiliyat bor bo'lsa? – ajablandi Sasha.
- Albatta, axir sen yaqinlarining kasal bo'lganda virusni boshqalariga yuqtirmaslik uchun ko'chaga chiqmading. Men sen kabi bolalarni super qahramon deb bilaman.

Shundan so'ng Sasha otasi kasal bo'lgan vaqtarda butun oila a'zolari bilan uydan chiqmay o'tirgani haqida so'zlab berdi. Uning aytishicha, karantin vaqtida ko'p kitob o'qibdi. Onasidan ovqat pishirish sirlarini o'rganibdi. Yaqinlariga ko'proq g'amxo'rlik qilibdi.



Sashaning hikoyasini eshitgan bolalar uning chindan ham super qizaloq ekaniga ishonishdi. Keyin qahramonlarimiz Sasha bilan xayr-lashib, dunyo bo'ylab sayohatlarida davom etishdi.

Ular ulkan orolda yashaydigan Leyla, olis Sharq o'lkalardan bo'lgan Kim ismli bolalarning uyida ham mehmon bo'lishdi. Ario bu bolalarni ham super qahramon deb atadi. "To'g'ri-da, bu bolalar koronavirusga qarshi mardlarcha kurasha oldi", deya so'ziga dalil keltirardi Ario.

Shunday qilib, bolalar vaqt qanday o'tganini sezmay ham qolishdi. Olis ufqdan quyoshning ilk nurlari ko'ringanda Ario uyga qaytish fur-sati kelganini aytdi. Ario Salemnii piramidalar yaqinidagi uyiga eltib qo'ygach, Sarani ham yotog'igacha olib kelib qo'ydi.

- Endi yotib uxla, qahramon! – dedi Ario uyqusirab turgan Saraga.
- Ario, sen rostdan ham meni qahramon deb hisoblaysanmi?
- Albatta! – Saraning savolidan biroz ajablandi Ario. – Unutma, qahramon bo'lish uchun multfilmlardagi kabi super qobiliyatli bo'lishing shart emas. Shunchaki o'zingni va yaqinlaringni ko'rinasdan xavflardan asra! Ishonchim komil, sen super qahramonsan!

Bu gaplardan so'ng Sara Arioga jilmayib qaradi. So'ng xush kayfiyat bilan uyquga ketdi.

*Ushbu asar IASC MHPSS RG  
xalqaro tashkiloti loyihasi doirasida yaratilgan.  
Asar dunyoning 104 mamlakatida yashovchi bolalar,  
ota-onalar va mutaxassislar tavsiyalariga ko'ra yozilgan.*



1. Sasha karantin vaqtida nimalar qildi?
2. Ario nima uchun Sasha, Leyla va Kimni super qahramon deb biladi?
3. Ario Sarani qahramon deb atadi. Siz bunga qo'shilasizmi?
4. Super qahramon bo'lish uchun odamda qanday xislatlar bo'lishi kerak?
5. Ayting-chi, siz ham o'zingizni super qahramon deb bila-sizmi? Nima uchun?



2. Agar o'zingizni super qahramon deb bilsangiz, super qobiliyatlariningizni birma-bir yozib chiqing.

**Namuna** 1. Men hech qachon yolg'on gapirmayman. 2. ...





### 3. Berilgan gaplar tarkibidan tushib qolgan so‘zni aniqlang va uni o‘z o‘rniga qo‘yib ko‘chiring.

1. Saraning oyisi \_\_\_\_\_ ga qarshi davo izlab, kecha-yu kunduz tinim bilmaydi.

karonavirus

koronavirus

karanavirus

2. Ario yangi do‘stlariga Sashanining \_\_\_\_\_ qobiliyati haqidagi so‘zlab bergen edi.

super

supper

3. Qahramon bo‘lish uchun \_\_\_\_\_ dagi kabi super qobiliyatli bo‘lishing shart emas, shunchaki o‘zingni va yaqinlaringni ko‘rinmas xavflardan asra!

multfilim

multifilm

multfilm

4. Ario va Sara birgalashib osmonga ko‘tarilishdi, Ario Sarani \_\_\_\_\_ bo‘ylab sayr qildirdi.

koyinot

koinot

### 4. Berilgan so‘zlarni izohi bilan moslashtiring, ularni lug‘at tuzish qoidalariiga binoan alifbo tartibida daftaringizga ko‘chiring.

COVID-19	Ko‘zga ko‘rinmas, kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlar.
Karantin	Yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish uchun davlat tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlar.
Virus	Ehrom. Qadimgi misrliklar toshdan yaratgan ulkan inshootlar.
Piramida	Biz kuzatishimiz mumkin bo‘lgan, bizni o‘rab turgan olam, yer-u osmon.
Koinot	2019-yil oxirida aniqlanib, 2020-yilda butun dunyo bo‘ylab tarqalgan, asosan nafas yo’llarini zararlovchi yuqumli kasallik nomi.

### 5. Matndan olingan parchani o‘qing. Partadoshingiz bilan “ko‘rinmas xavflar” ro‘yxatini tuzing.

– Unutma, qahramon bo‘lish uchun multfilmlardagi kabi super qobiliyatli bo‘lishing shart emas. Shunchaki o‘zingni va yaqinlaringni ko‘rinmas xavflardan asra!

### Ko‘rinmas xavflar ro‘yxati

✓ beparvolik, ...

✓

✓

### 6. Berilgan gaplarni yuqoridagi matn mazmuniga asoslangan holda to‘ldirib, daftaringizga ko‘chiring.

**Namuna** *Sara (nimani?) istardi. Sara koronavirus daf bo‘lishini, olamni ortiq qo‘rqtmasligini istardi.*


1. Sara boshqa bolalarga yordam berishi uchun unga (qanday?) yordamchi kerak.
2. (Kimlar?) ulkan orolda yashaydigan Leyla, olis Sharq o‘lkalari dan bo‘lgan Kim ismli bolalarning uyida mehmon bo‘lishdi.
3. Unutma, qahramon bo‘lish uchun (qanday?) bo‘lishing shart emas. Shunchaki o‘zingni va yaqinlaringni ko‘rinmas xavflardan asra!
4. Olis ufqdan quyoshning ilk nurlari ko‘ringanda Ario uygaga qaytish fursati kelganini (nima qildi?).
5. Sasha (qachon?) ko‘p kitob (nima qilibdi?), (kimdan?) ovqat pishirish (nimani?) o‘rganibdi, (kimlarga?) ko‘proq g‘amxo‘rlik qilibdi.



### VIRUSLAR


Havoda uchib yurar,  
Kezib yurar har yoqda,  
Jon saqlaydi, sovqotmas  
Hattoki muzqaymoqda.

Shunday ayyor, panalab,  
Bildirmasdan qilar ov.  
Qizartirib tomoqni,  
Isitma berar darrov.



Ko'rinnmaydi – yovuz kuch,  
Duch kelganga otar tosh.  
Aslin aytsam, turi ko'p,  
Bir-biriga qarindosh.

Virusga tushar asir –  
Uning tani birpasda:  
Kimning bo'lsa qo'li kir,  
Kim bo'lmasa orasta!



### Faxriddin Hayit




1. Viruslar odam tanasida qanday kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin?
2. Virusning qanday qobiliyatları bor ekan? Sanab bera olaszmi?
3. Virusga kimlar asir tushishi mumkin? “Virusga asir tushish” nimani anglatadi?



### 7. Virus haqida xabar matni yozing.

Tasavvur qiling, siz gazeta yoki biror axborot saytida ishlaysiz. Virusning yangi turi ma'lum bo'ldi. Siz tezkorlik bilan bu virus haqida odamlarga xabar berishingiz kerak.

## VIRUSNING SIFATLARI





## DANGASALIK – YOMON ILLAT



1. Illat so‘zi nimani anglatishini bilasizmi?
2. Dangasalik qilsangiz, oila a’zolaringiz nima deydi?



Rasmlarga qarang. Qaysi rasmda dangasalar tasvirlangan? Ularni nima uchun dangasa deymiz?

1



2



3



4



5



6



94



**1. Yuqoridagi rasmlar haqida o'zgacha fikrlashga harakat qilamiz. Namunadagi kabi gaplar tuzib, yozing.**

**Namuna** 3-rasm:

- a) Akmal doim soat 8 gacha uxlaydi, chunki u dangasa.
- b) Akmal soat 8 gacha uxbab qoldi, kecha mehmonga borishganda qattiq charchagan bo'lsa kerak.



**She'rni o'qing. Savollarga javob bering.**



## DANGASANING TA'TILI

Tikkaga kelgan oftob  
“Tur!” deb qiladi xitob.

Dasturxonda qaymoq, osh,  
Boshin qashlaydi Bektosh.  
Nonushtami yo tushlik –  
Bilolmay hayron sho'rlik.  
To'ygach ovqatga qorin,  
Ish yoqmasligi tayin.

Soya-salqin xonada,  
Kitoblardan panada,  
Kompyuter yonida, xo'sh,  
Hoynahoy, ko'ryapti tush?!

Hovlining u chetiga  
Bir bor o'tib kelguncha  
Botib ketibdi oftob,  
Kunlar o'tmoqda shitob.  
Yostiqdan ko'tarmay bosh,  
Ta'tilni qildi odosh.

**xitob** – chaqirish,  
murojaat qilish

**shitob** – tezlik bilan

**odosh** – oxir, yakun,  
tamomlash

**Muhabbat Hamidova**



1. Bektosh kech uyg'onganini she'rning qaysi qatorlaridan bilib olsak bo'ladi?
2. "Qorin to'ydi – g'am ketdi" iborasi she'rning qaysi qatorlari-ga mos tushadi?
3. "Hoynahoy, ko'ryapti tush" deyilganda nima nazarda tutilmoqda?
4. "Kitoblardan panada" deganda nimani tushundingiz?
5. Bektosh kun bo'yi nimalar qilganini ketma-ketlikda aytib bering.



**Ikki ustunni o'zaro moslashtirib o'qing. Shoir qaysi qatorda nima demoqchi bo'lganini toping.**

1. Tikkaga kelgan oftob	a) uyg'otadi, o'rnidan turishga chorlaydi
2. Kitoblardan panada	b) turtib uyg'otmoqchi bo'ladi
3. Botib ketibdi oftob	d) o'rnidan turmasdan, kun davomida uxladi
4. Kunlar o'tmoqda shitob	e) tushlikka yaqin qolgan, quyosh allaqa-chon chiqqan
5. "Tur!" deb qiladi xitob	f) kunlar juda tez o'tmoqda
6. Yostiqdan ko'tarmay bosh	g) kitob o'qimasdan
7. Ta'tilni qildi odosh	h) kech bo'lgan, quyosh ko'rinxmay qolgan
	i) kitoblar yo'q joyda
	j) ta'til juda qisqa bo'ldi
	k) kunni shunday o'tkazdi



**"Dangasa" multfilmidan olingan parchani tomosha qiling. Savollarga javob bering.**



1. Dangasaning otasi nima ish qiladi?
2. Dangasa qo'ylarni qo'yib yuborgach, qaysi o'yinni o'ynadi?
3. Qo'ylarni qo'yib yuborishning oqibati nima bo'ldi?
4. Sizningcha, o'g'ilning dangasaligida onaning aybi bormi?



**"Dangasa" multfilmi hamda quyidagi rasm asosida gaplar tuzing. Namunadan foydalaning.**

**Namuna** Bektosh tovuqlarga don bermadi.



1. Mehnatkash inson hech qachon kam bo'lmaydi, deganda nimani tushunasiz?
2. Kattalardan halol pul topish haqida eshitganmisiz?



**O'tgan darsda "Dangasa" multfilmini ko'rgan edingiz. Hozir shu multfilmning davomini ertak tarzida o'qiysiz.**

Bir kuni ota o'g'liga:

- Men qarib qoldim, endi xo'jalikni sen boshqarasan, ishla, pul top debdi.

Bola nima qilishini bilmay, onasiga uning gaplarini aytibdi.

Onasi esa:

- Hali yoshsan, qayerdan ham pul topib, xo'jalikni boshqararding,
- debdi va unga ozroq pul beribdi: – Ozroq o'ynab, bu pulni otingga olib borib ber.

Bola sevingancha yugurib ko'chaga chiqib ketibdi. Kechga tomon otasining oldiga kelib:

- Otajon, mana, pul topib keldim, – debdi. Ota bolaning qo'lli-

*Xo'jalikni boshqarish  
deganda nimani tushunasiz?*

dagi pulni olib, o'tga tashlabdi. Bola xo'rsinibdi, lekin indamay ketaveribdi. Ota ertasi kuni ham o'g'liga pul topib kelishini aytibdi. Bola yana onasining oldiga boribdi. Onasi unga yana pul beribdi. O'g'il xuddi kechagidek, kunni kech qilib, otaning oldiga pul bilan kelibdi va:

– Otajon, mana, pul topib keldim, – debdi. Ota ham indamay pulni olibdi-da, yana o'tga tashlabdi. Bola yana indamay ketaveribdi.

Uchinchi kuni ham ota o'g'ildan pul topib kelishni so'rabdi. O'g'il har doimgidek onasining yoniga boribdi, onasi esa:

*Nima deb o'ylaysiz, nega ona har safar o'g'liga pul beryapti?*

– O'g'lim, menda ham pul qolmadi, endi o'zing ishlab topmasang bo'lmaydi, – deb javob beribdi.

Bola noiloj ko'chaga chiqib ketibdi. Qarasa, bir kishi imorat qurayotgan ekan.

– Assalomu alaykum, amaki! – debdi bola.  
– Vaalaykum assalom, kel, bolam, – debdi haligi kishi ham. Bola xursand bo'lib, darrov g'ishtlarni tashishga kirishibdi. Buni ko'rgan haligi amaki sevinibdi, uni maqtabdi. Issiq ovqat, choy beribdi. Bola to imorat bitgunicha shu kishiga yordamlashibdi. Bolaning ishidan rozi bo'lgan kishi unga pul berib, rahmat aytibdi.

Bola xursand bo'lib uyga qaytibdi:

– Otajon, mana, pul topib keldim, – debdi. Ota odatdagidek pul-larni olib, o'tga tashlamoqchi ekan, bola dod deb otasining qo'liga yopishibdi. Shunda ota:

– Barakalla, bolam, ana endi xo'jalikni boshqarish qo'lingdan kela-digan bo'ldi, – debdi va uni duo qilibdi.





1. Nega bola birinchi va ikkinchi safar otasi pulni o'tga otganda indamadi?
2. Uchinchi safar otasi pulni o'tga otayotganda bola nega qarshilik qildi?
3. Sizningcha, ota pullarni o'tga otishi shartmidi? Boshqa nima qilishi mumkin edi?



## 2. Dangasaligi sabab uyalib qolgan o'quvchi haqida kichik hikoya yozing. Hikoyangizda quyidagi ma'lumotlar bo'lsin:

- Dangasaning ismi nima edi?
- Qanday ishlarni qilishga erinar edi?
- Qaysi ishlarni sevib bajarar edi?
- Qaysi voqeя sabab u uyalib qoldi?



**Yozgan hikoyangizni o'qituvchingizga topshirishdan oldin sinfdoshlaringizga o'qib bering.**



O'tgan darsda yozgan hikoyangizni o'qituvchingiz tekshirib, xatolaringizni belgilab kelgan. Siz xatoyingiz nimada ekanini topping va uni to'g'rilab, hikoyangizni qayta yozing. Hikoyangizga qo'shimcha voqealarни ham kiritishingiz mumkin.



## 3. Rasmlarga qarang. Ularda nima tasvirlanganini yozing.

1



2



3



4



5



99



**Qaysi rasmlarda dangasalikning oqibati ifodalangan deb o'ylaysiz? Qahramonlar qaysi ishga dangasalik qilganlari uchun shu ahvolga tushishgan? O'rtoqlaringizga tushuntirib bering.**



#### **4. Namunadagi kabi gaplar tuzib, yozing.**

**Namuna** Nazira dars qilishga eringan, shuning uchun kundaligida “ikki”lar ko‘p.



**Quyidagi she'rlarni o'qing. She'rdagi voqealarni qayta aytib berishga harakat qiling.**

\*\*\*

Qo'shni xola egatga  
Noliydi ekib ekin.  
– Nechun, o'g'lim, har ishni  
Qilasan juda sekin?

O'yinga xo'b chaqqon-u,  
Ishni yomon ko'radi.  
Shuning uchun oyisi  
Tanbeh berib turadi.

*Parizoda Ro'ziboyeva*

\*\*\*

Uyqu bosar ko'zini,  
Bormaydi ishga qo'li.  
Hatto uzoq tuyular  
Ertalab maktab yo'li.

Dangasaning holi tang,  
Zo'rg'a yuzin ho'llaydi.  
Qo'l yuvmasdan qornini  
To'yg'izishni o'ylaydi.

*Muhabbat Qayumjonova*



**Quyidagi so'zlar hamda ularning ma'nolarini moslashtiring.**

nolimoq

tanbeh

tang

qiycin, hal qilish mushkul bo'lgan

shikoyat qilish, norozilik bildirish

nojo'ya harakat uchun berilgan ogohlantirish



#### **5. Yuqoridagi uchta so'zni qatnashtirib gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizni o'qib bering.**



100



## 6. Berilgan gaplardagi bo'sh o'rirlarning qaysi birlariga -ma qo'shimchasini qo'ysak bo'ladi? Gaplarni ko'chiring.

- Salim hech qachon mehnat qil...gan, shuning uchun darrov charchab qoladi.
- Olima ikki baho ol...gan, chunki u juda yaxshi o'qiydi.
- Sarvar vazifani bajar...gani uchun o'qituvchi uni maqtab qo'ydi.
- Sevara she'rni yodla...gan edi, shuning uchun o'qituvchidan tanbeh eshitdi.
- Shokir kechqurun yaxshi uxla...gan edi, shuning uchun uning ko'zini uyqu bosyapti.
- Karima dangasa emas, bugun kayfiyati yo'qligi uchun qo'li ishga bor...yapti.
- Yomg'ir yog'...sa yerlar ho'l bo'ladi.



Biror ish-harakat amalga oshmaganini bildirmoqchi bo'lsak, so'zga -ma qo'shimchasini qo'shamiz. Masalan, siz tushlik paytida uxlagan bo'lsangiz, tushlikda uxladim, deysiz, agar ak-sincha bo'lsa, tushlikda uxlamadim, deysiz.



**"Zanjir" o'yinini o'ynang. Voqealar zanjirini davom ettiri-shingiz kerak bo'ladi.**

Komron kun bo'yi hech nima qilmay, faqat o'ynadi.

Kechga yaqin charchadi va darslarini ham qilmay uxbab qoldi.

....



**Guruhlarga bo'lining. Guruhdoshlar birgalikda kun tartibi ishlab chiqing. Kun tartibingizda hamma narsa me'yorida bo'lsin: o'yin ham, dars ham, jismoniy mehnat ham qolib ketmasin.**

Guruhingiz bilan tuzgan kun tartibingizni boshqalarga taqdimot qilib bering.






**Rasmga qarang. Tomorqada nimalar tashkil qilish mumkinligini ayting.**



Bog'



Issiqxona



Tomorqa



Gulzor



Poliz



1. Tomorqa deganda nimani tushunasiz?
2. Tomorqaga nimalar ekish mumkin ekan?
3. Tomorqada nimalar tashkil etish mumkin?
4. Poliz nima? Uy sharoitida qanday poliz ekinlarini yetishtirish mumkin?
5. Issiqxona nima? Unda qanday mahsulotlar yetishtiriladi?
6. Gulzor nima? Uning qanday foydali tomonlari bor?
7. Bog' nima? Qanday mevali daraxtlarni bilasiz?
8. Tomorqadan qanday daromad olish mumkin?



**Tasavvur qiling, tomorqangiz bor. Undan qanday foydalanasiz? So'zlab bering.**



- ✓ U qanday ko'rinishga ega?
- ✓ Qanday ekinlar ekasiz? Nima uchun?
- ✓ Bir yilda taxminan qancha daromad topasiz?
- ✓ Daromadingizni ko'paytirish uchun yana nimalar qilasiz?



**"Ko'chat ekish sirlari" audiomatnini tinglang va savollarga javob bering.**

1. Mevali daraxt ekish uchun qulay fasl qaysi? Nima uchun?
2. Eng keng tarqalgan mevali daraxtlar qaysilar?
3. Sizning uyingizda qanday mevali daraxtlar bor? Ularga ta'rif bering.
4. Ko'chat ekayotganda nimalarga e'tibor qilish kerak? Bu nega muhim?
5. Ko'chat ekilgandan so'ng nima qilish kerak? Bu nega muhim?



### **1. Ko'chat ekish qoidalarini ketma-ketlikda yozing.**

- 1) qulay joy tanlash...
- 2) ...



...

(ertak)

Qadim zamonda bir serfarzand kishi yashagan ekan. U boyning uyida xizmatchi bo'lib ishlar, **amal-taqa** qilib **ro'zg'or tebratar** ekan. Farzandlari ulg'aygani sari ro'zg'or tashvishlari ham ko'payibdi. Boyning uyida kun bo'yи og'ir mehnat qilsa ham, dam olish nima ekanini bilmay ishlasa ham, hech **biri ikki bo'lma** badi. Hatto bolalarining qornini to'ydirishga imkoniyet may qolibdi. Endi qanday yashayman, oilamni qanday boqaman deb turganida qo'shnisidan bir xabar eshitibdi. Emishki, olis bir yurtdagi allaqanday tog'dan juda ham katta oltin koni topilibdi. Qishloqdan ko'pchilik shu konda ishlab, oltin g'amlab kelish niyatida jo'nab ketayotgan ekan. Xizmatchi

103

kishi ham o'ylab o'tirmay, qishloq doshlariga qo'shilib kon tarafga yo'l olibdi.

Otasi ketganidan so'ng ro'zg'or tebratish o'n ikki yoshli to'ng'ich o'g'ilning **gardaniga tushibdi**. Ularning uyi to'qayzor yaqinida joylashgan edi. To'ng'ich o'g'il ukalari bilan birga shu to'qaydan o'tin yig'ib, shaharga eltib sota boshlabdi. To'ng'ich o'g'il anchagina tadbirkor ekan, tushgan pullarni **jamg'arib**, bitta eshak sotib olibdi. Shu bilan to'qaydan o'tin yig'ib sotish ishlari ikki hissaga ortibdi. Chunki eshakka ko'proq o'tin ortish mumkin edi-da.

Aka-ukalar o'tin chopish barobarida to'qayzordagi kunda-yu tomirlarni ham tozalab boraverishibdi. Kuzda jamg'argan puliga ho'kiz va omoch sotib olib, to'qayzorning ochilgan yerini haydashibdi. So'ng haydalgan yerga bug'doy sepishibdi. Alloh barakasini berib, bug'doy hosili juda mo'l bo'libdi. Shunday qilib, to'ng'ich farzand bug'doy sotadigan katta savdogarga aylanibdi.



Ota esa o'sha ketganicha uch yil **ovora-yu sarson** bo'lib, hech qayerdan oltin topmay, ortga qaytishga majbur bo'libdi. Qarasa, shahar bozorida o'g'li bug'doy sotib turgan ekan. O'g'il ham otasining qaytganidan xursand bo'lib, bor gapni aytib beribdi. Shunda ota: "Haqiqiy xazina shundoqqina uyimizning yonida ekan, bilmagan ekanman", debdi afsuslanib.



1. Serfarzand odamning yashash sharoiti qanday ekan? Javobingizni izohlang.
2. Nima uchun ota qishloqdan ketibdi?
3. “Ro‘zg‘or tebratish to‘ng‘ich o‘g‘ilning gardaniga tushibdi”, deganda nimani tushundingiz?
4. Ayting-chi, to‘ng‘ich o‘g‘il qaysi xislatlari uchun boyib ketdi?
5. Nima deb o‘ylaysiz, agar ota oltin izlab ketmaganida, ular qanday yashayotgan bo‘lardilar?
6. “Haqiqiy xazina shundoqqina uyimizning yonida ekan, bilmagan ekanman”, deganda ota nimani nazarda tutgan? Ushbu fikrni izohlang.
7. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?



### **Ertakka mos sarlavha tanlang.**



- 2. To‘ng‘ich o‘g‘il qanday qilib katta savdogarga aylandi?**  
Ketma-ketlikda yozing.

**Namuna** *To‘qaydan o‘tin yig‘di, ...*

**3. Moslashtirib ko‘chiring.**

*ovora-yu sarson*

*maqsadiga yeta olmaslik*

*jamg‘armoq*

*zo‘rg‘a, bazo‘r*

*gardaniga tushmoq*

*oila boqish*

*biri ikki bo‘lmaslik*

*zimmasiga tushmoq*

*amal-taqal*

*foyda ko‘rmaslik*

*ro‘zg‘or tebratmoq*

*yig‘moq*

**4. Berilgan qaysi so‘zlarga *tozala* so‘zidagi -la qo‘sishimchasini qo‘sish mumkin? Aniqlab, yozing.**

gul

ko‘cha

ish

o‘y

tish

yoz

**5. Matn tarkibidan kishi nomlari, joy nomlari va hayvonlarning nomlarini aniqlab, alohida ustunlarga yozing.**

Kishi nomlari	Joy nomlari	Hayvon nomlari
?	?	?



O‘qigan hikoyangizni gapirib bering. Gapirish jarayonida adabiy talaffuz qoidalariga rioya qiling. Sinfdoshingiz aytgan hikoyani diqqat bilan tinglang. Unga munosabat bildiring.



**Maqollarni o‘qing. Ma’nosini tushuntiring.**

Betashvish bosh qayda,  
Mehnatsiz osh qayda.

Bir qo’llab eksang,  
Ikki qo’llab o’rasan.

Daryo suvini bahor toshirar,  
Odam qadrini mehnat oshirar.

Yer boylikning otasi bo‘lsa,  
Onasi – mehnat.

Ish kuchini yelga berma, yerga ber,  
Jamg’armani selga berma, elga ber.



**6. Qaysi maqol sizga ko‘proq yoqdi? Ushbu maqolning mazmunini izohlab yozing.**



## YER CHOPILDI – JAVOB TOPILDI

– Bezovta qilmang, –  
Deya onamga,  
Dars tayyorlashga  
**Kirdim xonamga.**  
Boshimni qashib,  
Rosa o'tirdim.  
Ko'p misollarni  
Yozdim, o'chirdim.  
Xayol otlari  
Uchishib chaqqon,  
Tutqich bermayin,  
Qochdilar har yon.  
Masala qurg'ur  
Yechilmaydi hech.

Bunday qarasam,  
Bo'lib borar kech.  
Cho'kib o'tirmay,  
Hovliga chiqdim,  
So'ng yerni chopib,  
Rosa chiniqdim.  
Birozdan keyin  
Yorishdi ko'nglim.  
Go'yo ochildi  
Fikrimga yo'llim.  
Barcha savolga  
Javob topildi.  
Shu bahonada  
Yer ham chopildi.

*Po'lat Mo'min*





1. She'rdagi qahramon nega diqqatini jamlab dars qila olmadi?  
Unga nimalar xalal berdi?
2. U nega hovliga chiqishga qaror qildi?
3. Uning ko'ngli nega yorishdi?
4. Aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatning farqi nimada?
5. She'rni yod oling.



**7. Ajratib ko'rsatilgan satrlarni o'z nutqizingizga aylan-tirib yozing. She'r satrlari bilan yozgan gapingiz o'rtasida qanday farqni sezdingiz? Qaysi biri ta'sirli? Nima uchun?**



**She'rni yoddan aytib bering.**



**8. She'rdagi qofiyadosh so'zlarni aniqlang, ularni jufti bilan yozing.**

**Namuna** onamga – xonamga, ...

**9. Sizda ham she'rdagi kabi holat bo'lganmi? Shu haqda qisqa matn tuzib, yozing.**



## DAROMADLI ISH

Pomidorning vatani **Janubiy Amerika** hisoblanadi. **Xristofor Kolumb Amerikani** kashf etganidan so'ng pomidorni **Yevropa** mamlakatlariga olib keladi. Bizning dehqon **bobolarimiz** esa pomidor bilan bundan 150 yillar oldin "tanishishgan" ekan.

Hovlimiz katta. Biz har yili **tomorqamizga** pomidor ekamiz. Ozroq mehnat va vaqt sarflab, bu ishdan mo'maygina foyda olish mumkin. Odatda pomidor ochiq ekin maydoniga 20-apreldan 10-maygacha ekiladi. 20 000 so'mga 2 sotix yer uchun ko'chat sotib olasiz. Endi buyog'iga faqat mehnat qilish kerak.

Pomidor suv, quyosh va o'g'itni yaxshi ko'radi. Avvaliga har 10 kun-da egatlarni chopib, ko'chatlarning tagini yumshatib turish kerak. Ular gullab, meva tuga boshlaganida esa tabiiy o'g'it berishni bosh-



laysiz. Ikki oy o'tgach, ilk hosilni yig'ib olishingiz mumkin. Keyin har 2–3 kunda yangi pishgan pomidorlarni terib turasiz. Bir sotix yerdan bir tonnagacha hosil olish mumkin. 1 kg pomidor eng kamida 2000 so'm turishini hisobga olsak, 2 tonnasi 4 million so'm bo'ladi. 20 ming so'm sarflab, 4 million so'm foyda qilish zo'r-ku!



1. Sizning ham tomorqangiz bormi? Unga nimalar ekilgan?
2. Agar o'z tomorqangiz bo'lganida, nimalar ekar edingiz?
3. Sizningcha, yana qanday ekinlardan yaxshi daromad topish mumkin?
4. Bosh harf bilan yozilgan so'zlarga e'tibor bering, ular nima uchun bosh harf bilan yozilganini tushuntiring.



**10. *Mamlakat* va *mamlakatlar* so'zlarining ma'nosini izohlab yozing. Ma'nolar o'rtasida qanday farq bor?**

**11. Matn tarkibidan -lar qo'shimchasi ishtirok etgan so'zlarni topib, ko'chiring.**





**Loyiha tayyorlang.**

## POMIDOR YETISHTIRAMIZ

*Kerakli narsalar*

*Yetishtirish jarayoni*

*Olinadigan foyda*

- Berilgan namuna asosida biznes-rejangizni tuzing.

Sizda 12 million so‘m pul bor. Uni quyidagi narsalarga sarflashingiz mumkin.



Issiqxona uchun pomidor ko‘chati  
1 million so‘m

4 sotix issiqxona  
10 million so‘m

Zarur o‘g‘itlar  
1 million so‘m

### Namuna

- Erta bahorda ikki sotix yerni chopaman. So‘ng shudgorlayman. Aprel oyining o‘rtalarida egat olaman.
- Bozorga borib, 20 000 so‘mga pomidor ko‘chatini sotib olaman va ekaman.
- Ko‘chatlarni yaxshi parvarish qilaman. O‘z vaqtida sug‘orib, o‘g‘it solib turaman.
- Ikki oydan so‘ng pomidor pishib yetiladi. Hosilni uzib, bozorda (yoki do‘konda) 1 kilogrammini 2000 so‘mdan sotaman.
- Pomidor sotib, 2 million so‘m daromad ko‘raman.



**Sinfda biznes-rejangiz taqdimotini qilib bering.**



- Hisob-kitoblaringiz, rejalaringiz yozilgan qog‘ozni sinfdoshlariningizga ko‘rsating.





# JAMG'ARMA PULLARIM



Rasmlarni diqqat bilan kuzating. Savollarga javob bering.



1. Pulni nimalarga sarflaymiz? Nima maqsadda?
2. O'ylab ko'ring-chi, pulga hamma narsani sotib olish mumkinmi? Fikringizni isbotlang.
3. Ayting-chi, nimalarni pulga sotib olib bo'lmaydi?

## Pulga nimalarni sotib olish mumkin?



O'yin-kulgi

Dori-darmon

Uy-ro'zg'or buyumlari

## Pulga nimalarni sotib olib bo‘lmaydi?



Sog‘lik



Do‘slik



Quyosh nuri



Oila



Vaqt



Quvonch



Tinchlik



Baxt



### 1. Jadvalni to‘ldiring.

Sotib olish mumkin	Sotib olish mumkin emas
O‘yinchoq	Vaqt

### 2. Daftaringizga namunadagidek gaplar tuzib, yozing.

**Namuna** Vaqtini pulga sotib olib bo‘lmaydi.



112



**Pulni tejash, iqtisod qilish deganda nimani tushunasiz?**



**“Pulning qopqonlari” audiomatnini tinglang. Savollarga javob bering.**



1. Xasis odam qanday bo'ladi? Xasis bilan tejamkorning farqi bormi? Izohlang.
2. Pulning “qopqonlari”dan eng kattasi qaysi ekan?
3. Keyingi qopqon qaysi? U haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. O'ylab ko'ring, balki boshqa “qopqon”lar ham bordir? Ular nimalar?
5. Ayting-chi, boy bo'lish yaxshimi yoki yomonmi? Javobingizni izohlang.

### To'g'ri javobni aniqlang.

Albatta, xasislik va pulni yaxshi ko'rish – illat. Ushbu gapdag'i “illat” so'zining matndagi ma'nosini aniqlang.

A. Xastalik B. Jinoyat D. Kamchilik E. Gunoh

### Noto'g'ri fikrlarni aniqlang.

- Reklamalar ehtiyojimizdan ortig'ini xarid qilishga undaydi.
- Qimmatbaho va “yoqimtoy” mahsulotlar rastalarning bir burchagida turadi.
- Ayrim hollarda pulni o'rinsiz ishlatish mumkin.
- Supermarketga faqat olinadigan narsalar ro'yxati bilan kirish kerak.



### 3. Matn mazmunini ochuvchi kalit so'zlarni yozing.

**Namuna** pul, ...

### 4. Faraz qiling, do'kondasiz. “Yoqimtoy” mahsulotlar ro'yxatini tuzing va yozing.

**Namuna** shokolad, ...

### 5. So'zlarga mos qo'shimchalarni qo'shib, yangi so'z yasang.

Xasis, jarang, ko'mak, afzal, o'rin.

**Qo'shimchalar:** -lash, -siz, -la, -lik.

Jamg'arma – xarajatlardan orttirib, tejab-tergab to'plangan pul, mablag'.



113



## BIR BOR EKAN, PUL BOR EKAN



Buvasining sotuvchiga pul uzatayotganini ko'rgan Malikaxon:

– Buva, siz sotuvchiga pul **berdiz-a?** U esa bizga muzqaymoq berdi, – dedi.

Nabirasining ziyrakligidan berasi quvonib ketdi. Keyin Malikaga tushuntira boshladi.

– Ha, qizalog'im. Pulimizni muzqaymoqqa alishdik. Aniqrog'i, u bizga muzqaymoq sotdi, biz esa pulini to'ladi.

– Pul yaxshi-a? – deya Malika berasini savollarga ko'mishni boshladi. – Uni qayerdan olgansiz? Kim bergan? Qanday paydo bo'lgan?

Burasi ko'pni ko'rgan bo'lishiga qaramay, shoshib qoldi. Ammo pul haqida, pulning tarixi va sarguzashti to'g'risida bilganlarini so'zlab berdi.

– Pul, qizim, bozordan yoki do'kondan biror narsa sotib olayotganingda o'sha narsaning o'rniغا beriladigan to'lov... Uni men

qurilishda mehnat qilib topganman. Odamlar juda qadim zamонлarda buyumlarni bir-birlari bilan almashtirganlar. Masalan, bir qop bug'doyaq bitta qo'yni, qulog'ingdagi kabi zirakni kichkinagina marvarid yoki oltin donachalariga almashtirishgan... Tushundingmi?

– Voy, juda g'alati-ku, – ajablandi Malika. Buvasi esa kulib qo'yarkan, yana davom etdi:

– Keyin odamlar biror narsaning o'rniga boshqa bir buyum berishdan sekin-asta voz kechishgan. Ular mis, kumush, oltin parchalari bilan savdo qilishga o'tgan. Shundan so'ng, kumush va oltin tangalar paydo bo'lgan. Ularning ichida eng asosiysi, qimmatbahosi oltin deb tan olingan. Lekin oltin va kumush tangalarni hamisha ishlatib bo'limgan. Ko'tarib yurish ham qiyin: og'ir-da. Shunda oltin qiymatini bosa oladigan qog'oz pulni o'ylab topishgan. Ularni 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so'mgacha suratli qilib chiqarishgan. Suratlar ichiga sirli belgichalar qo'yishgan.

– Sirli belgilarni nimaga qo'yishgan?

– Ba'zi nopolod odamlar o'zlaricha qalbaki pul yasab olishlari ham mumkin-da, qizim.

– Yasab olishsa, nima bo'ladi?

– Yomon bo'ladi. Bu mumkin emas. Pul – har bir davlatning ramziy belgisi, boylik timsoli. Uni kimda-kim o'zicha yasab olsa, odamlarni ham, davlatni ham aldagani, o'g'rilik qilgan bo'ladi. O'g'rilik esa jinoyat. Pulni davlat chiqaradi va qattiq himoya qiladi.

– Tushundim! – dedi Malika. – Pulni davlat chiqaradi, uni dadalar ishlab topishadi. Keyin Malikaxonlarga muzqaymoq olib berishadi.

– Ha, barakalla, gap degani mana bundoq bo'pti!


### Namoz Sa'dullayev



1. Ushbu suhbatning boshlanishiga nima sabab bo'ldi?
2. Buvaning kasbi nima ekan?
3. Odamlar qadimda puldan foydalanishganmi? Javobingizni izohlang.
4. Qog'oz pulni o'ylab topishga nima sabab bo'lган?
5. Odamlar o'zlari uchun pul yasab olishlari mumkinmi? Nega?
6. Malika hikoya so'ngida qanday xulosaga keldi? Sizningcha, uning xulosasi to'g'rimi?
7. "Pul berdiz-a?". Ayting-chi, ushbu gapning yozilishi to'g'rimi?



## 6. Matn tarkibida ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering. Daftaringizga bo'sh joylarni to'ldirib yozing.



**"Bir bor ekan, pul bor ekan" matni asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.**



## 7. Berilgan ma'lumotlarni matn mazmuniga mos holatda ketma-ketlikda joylashtiring.

- A. Pul – bozor yoki do'kondan biror narsa sotib olishda o'sha narsaning o'rniغا beriladigan to'lov.
- B. Keyinchalik odamlar mis, kumush, oltin parchalari bilan savdo qilishga o'tganlar.
- D. Oltin qiymatini bosa oladigan qog'oz pulni o'ylab topishgan.
- E. Odamlar juda qadim-qadim zamonlardan bir-birlari bilan buyumlarni almashtirganlar.

1	2	3	4

## 8. Quyida pulning paydo bo'lish bosqichlari berilgan, ularni to'g'ri ketma-ketlikda yozing.

- A. Oltin va kumush tangalar yaratilgan.
- B. Qog'oz pul o'ylab topilgan.
- D. Buyumlar o'zaro almashtirilgan.
- E. Kumush, oltin, mis parchalari bilan savdo qilingan.



**9. Jadvalda berilgan qo'shimchalardan mosini qo'yib gaplarni to'ldiring. Nima uchun ushbu qo'shimchadan foydalanganingizni izohlang.**

Sotuvchi biz.... muzqaymoq sotdi, biz esa puli... to'ladi.

Nabirasi..... ziyrakligi..... buvasi quvonib ketdi.

Pul – har bir davlat... ramziy belgisi, boy.... timsoli.

Pul... kimda-kim o'zicha yasab olsa, odamlarni ham, davlatni ham aldagan, o'g'ri... qilgan bo'ladi.

So'z yasovchi qo'shimchalar	So'zni so'zga bog'lovchi qo'shimchalar
-chi	-ga
-kor	-ni
-lik	-ning
	-dan



Qo'shimcha so'zga qo'shilib, yangi so'z yasaydi yoki so'zni so'zga bog'laydi.

**10. Matn asosida quyida berilgan voqealardan sabablarini izohlab yozing.**

Keyinchalik oltin qiymatini bosa oladigan qog'oz pullar o'ylab topilgan.

Sababi

?

Qog'oz pullar ichidagi suratlarda sirli belgilari mavjud edi.

Sababi

?

Odamlar mis, kumush, oltin parchalari bilan savdo qilishgan.

Sababi

?





## YAXSHI DO'STLAR BOR EKAN

Yangi kino kelibdi  
Oldimizga, binoga.  
Boshlab bordim do'stlarim  
O'sha yangi kinoga.

O'rtoqlarim siyladim,  
Qaramay o'ng-so'limga.  
Chipta oldim hammaga  
Yig'ib yurgan pulimga.

Bir tiyin ham qolmabdi,  
Ishonmaysiz so'zimga.  
Pulim yetmay qoldi-ya,  
Kelib-kelib o'zimga.

Ko'rmas edim kinoni,  
Menga omad yor ekan.  
Qarzga berdi bir do'stim,  
Ancha puli bor ekan.

### KINO KASSA



*Kavsar Turdiyeva*



1. Ayting-chi, bola o'rtoqlarini qanday siylagan bo'lishi mumkin?
2. Nima uchun bolaning o'ziga pul yetmay qoldi?
3. Bola nima uchun o'zini omadli deb o'yladi?
4. Qarz nima? Do'sti qarzga pul berib to'g'ri qildimi? Nima uchun?
5. Bola to'g'ri ish qilgan deb o'ylaysizmi? Nima uchun?
6. Ayting-chi, sizningcha, yaxshi do'st qanday bo'ladi?



**11. Siylamoq so'zining matndagi ma'nosini aniqlab, yozing. Shu so'z ishtirokida 1 ta gap tuzing.**

Hurmat qilmoq

Mehmon qilmoq

Qadriga yetmoq

## 12. So‘lso‘zining ma’nosiga mos gapni aniqlab, yozing.

- Do‘konning o‘ng tomonida dorixona joylashgan.
- O‘ng ko‘zingga chap ko‘zing soqchi bo‘lsin.
- To‘g‘ri boshni egri qilich kesmas.

## 13. She’rdan chiqargan bitta xulosangizni yozing.




**Ayting-chi, ro‘zg‘orda pul tejashning qanday yo‘llari bor?  
Siz oila a’zolarингизга bu borada qanday yordam berishingiz mumkin?**



**“Kommunal to‘lovлarni qisqartira olamiz” mavzusida loyiha tayyorlang.**

Ota-onangiz oylik daromadining bir qismini communal to‘lovlar uchun sarflashini bilasiz. Ba’zan ta’mnotchidan qarz ham bo‘lib qolishadi. Lekin siz ularga yordam berishingiz mumkin. Buning uchun elektr, suv va tabiiy gazdan samarali foydalanish usullari haqida tavsiyalar tayyorlang.





## 14. Mashq daftaringizga loyihangiz asosida gaplar tuzib, yozing.

Suvdan samarali foy-dalanish uchun tavsi-yalar	Elektr tokidan sama-rali foydalanish uchun tavsiyalar	Tabiiy gazdan sama-rali foydalanish uchun tavsiyalar
...	...	...

Iqtisod – sarf-xarajatda tejamkorlik, tejab (asrab) qolish.



### Birgalikda o'ylaymiz!



- ✓ Partadoshingiz bilan rasmlarda aks etgan voqeа haqida fikr almashing.
- ✓ Hikoya uchun chiroyli sarlavha o'ylab toping.
- ✓ Yozgan hikoyangizni partadoshingizga bering. Partado-shingizning hikoyasi haqida o'z fikringizni aiting.



## 15. Berilgan rasmlar asosida hikoya tuzing va yozing.



120




## YETTI XAZINA



Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

### YETTI XAZINA BILAN TANISHING



sigir



tegirmon



asalari




ipak qurti



o'rmon



tovuq



moyjuvoz

1. Siz xazina deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun rasmdagi narsalarni xazina deyish mumkin?
3. Sizningcha, sigir nima uchun xazina deyiladi?
4. Tovuqning nimasi xazina?
5. Asalari nega xazina?
6. Ipak qurti ham xazinami? Nega?
7. Moyjuvoz-chi?
8. Tegirmon-chi?
9. O'rmon ham xazinami? Nega?



1. Rasmdagi narsalarning xazina ekanini izohlab gaplar tuzing.

**Namuna** Tovuq chindan ham xazina. Uning go'shti ham, tuxumi ham foydali.



121



### “Yetti xazina” audiomatnini tinglang. Savollarga javob bering.

1. “Cho‘pchak bilan haqiqiy hayotning o‘rtasida katta farq bor” deganda nimani tushundingiz?
2. Siz yana nimalarni xazinaga qiyoslay olasiz?
3. Yetti xazinaning qay biri sizda bor? U haqida so‘zlab bering.
4. Yetti xazinaning qay biri sizda bo‘lishini istaysiz? Nima uchun?



### 2. Berilgan so‘zlarni to‘g‘ri moslashtirib o‘qing. Hosil bo‘lgan gaplarni daftaringizga yozing.

**Namuna** Tovuq tuxum qo‘yadi.

Tovuq

asal

olinadi

O‘rmondan

tuxum

chiqaradi

Sigir

yog‘och

beradi

Asalari

yog‘

yig‘adi

Ipak qurti

sut

qo‘yadi

Moyjuvoz

un

o‘raydi

Tegirmonda

pilla

tayyorlanadi

### 3. Tinglagan matningiz tarkibida uchragan so‘zlar ichidan harakatni bildiruvchi so‘zlarni ajratib yozing.

xazina	dono	oltin	tayyorla
har kuni	yasha	xulosa	mashhur
shifobaxsh	o‘yla	sarguzasht	tasvirla

#### 4. Harakatni bildiruvchi so‘zlarni quyidagi tartibda tahlil qiling.

**Namuna** *yosh+a – yasha, ...*



## MEHRIBON AKA-UKALAR

(*Hikoya*)



Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, **jannatmonand** Farg‘ona vodiysida bir mehnatkash dehqon yashab o‘tgan ekan. U Alloh bergen umrini mazmunli yashab, **vaqtি-soati yetgach, omonatini topshirgan** ekan. Undan bir **botmon** yer-u ikki o‘g‘il qolgan ekan. O‘g‘illari xuddi otalariga o‘xshab mehnatkash, serg‘ayrat, halol kishilar ekan. Ular otalaridan meros qolgan yerga bug‘doy, sholi, makkajo‘xori kabi serhosil don-dunlardan ekishar ekan. Hosillari yildan yilga omborlarini to‘ldirib boraverarkan. Nihoyat, bug‘doy yig‘imi mavsumi yetib kelibdi. Aka-ukalar bug‘dohni o‘rib, **xirmonga bosishibdi**. O’sha zamonlarda

123

o'rilgan bug'doyni ho'kizlar tuyoqlari bilan yanchib, donga aylantirar ekan. Ho'kizning ustiga og'ir narsalarni bostirib ishlatishar ekan.

Bir kuni kechasi, yarim tunda ukasi uyg'onib ketibdi.

– **Men so'qqaboshman**, yolg'iz o'zim yashayman. Akam bechoraning besh bolasi bor, ulushimning yarmini unga beray, akam sotib, qishda qiyalmalmasligi uchun ro'zg'orini butlab olsin, – deya xirmonga borib, ulushining yarmini akasinikiga qo'shib qo'yibdi. Buni qarangki, o'sha tun akasi ham uyg'onib, **behalovat bo'lib**, uxmlamay chiqibdi.

– Men-ku, Xudoga shukur, uyli-joyliman, yaxshigina hovlim ham bor. Ukam bechora yakka o'zi, axir u ham uylanishi, uy-joy qurib olishi kerak. Donimning yarmini o'shangaga beray, sotsin, uylanib olsin, – deya xayolidan o'tkazibdi. So'ng yarim tundan oshganda shoshibil xirmonga boribdi. Xirmondag'i donning yarmini ukasinikiga qo'shibdi. Qaytib uyiga kelib, shiringina uyquga ketibdi.

Ertasiga tong sahardan aka-ukalar yana ishga kirishibdi. "Xo'p mayda, xo'p mayda, somoni senga foyda, bug'doyi menga foyda", deb qo'shho'kizni haydab qo'shiq aytishibdi. Xirmonni yanchib, yaxshigina don yig'ishibdi, Xudoga shukr qilishibdi.

Urf-odatlar bo'yicha xirmon tepasiga kelganlar "Xirmonga baraka!" deb duolar o'qisharkan. Masjid imomiga besh **g'alvir**, yurtning sartaroshiga uch g'alvir, qulog'iga azon aytgan **muazzzinga** ikki g'alvirdan bug'doy berib, qolganini aka-uka teng ikkiga bo'libdi.

### Xudoyberdi To'xtaboyev



1. Aka-ukaning qanday xislatlari bor edi? Sanab bera olasizmi?
2. Halol inson qanday bo'ladi?
3. Nima deb o'ylaysiz, nega aka-ukalarning hosili yildan yilga ortib bordi?
4. Ukasi nega o'z bug'doyidan akasiga berdi? Uning bu ishi to'g'ri edimi?
5. Akasi nega o'z bug'doyidan ukasiga berdi? Uning ishi to'g'ri edimi?
6. Nima deb o'ylaysiz, aka-ukalar nega o'z bug'doyidan masjid imomiga, sartaroshga, muazzzinga berishdi?
7. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?



## 5. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni mos izohlari bilan yozing.

Jannatmonand

Omonatini topshirmoq

Xirmonga bosmoq

Muazzin

So‘qqabosh

G‘alvir

Botmon

Behalovat bo‘lmoq

- A. Vafot etmoq, olamdan o‘tmoq.
- B. Tinchi yo‘qolmoq, besaranjom bo‘lmoq.
- D. Obod, go‘zal.
- E. Og‘irlik o‘lchovi birligi.
- F. Don elanadigan siyrak to‘rli katta elak.
- G. Yig‘ib-terib olingan ekinlar hosilini ajratilgan joyga to‘plab qo‘ymoq.
- H. Hech kimi yo‘q, yolg‘iz odam.
- I. Masjidda azon aytib, namozga chaqiruvchi.



## 6. Matndan olingan quyidagi so‘zlarni o‘qing. To‘g‘ri yozilganlarini aniqlab, ko‘chiring.

yildan yilga

yildan-yilga

jannat monand

jannatmonand

xayol

hayol

serhosil

ser hosil


don dun

don-dun

yig‘ip-terip

yig‘ib-terib

**7. Matn tarkibidan aka-ukalarning sifatlarini bildiruvchi, qanday? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlarni aniqlab, ushbu kataklarni to‘ldiring.**



**Matn asosida 2 ta to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.**

- ✓ Ukaning beshta bolasi bor.
- ✓ Aka xirmondagi donning hammasini ukasinkiga qo‘sibdi.
- ✓ O‘rilgan bug‘doyni ho‘kizlar tuyoqlari bilan yanchgan.
- ✓ Faqat kichik o‘g‘il otasiga o‘xshar ekan.
- ✓ Otadan bir botmon yer va ikki o‘g‘il qolgan ekan.

**8. Hikoyadan olgan xulosangizni yozing.**

- ✓ Men ushbu hikoyadan ...
- ✓ Xulosam shuki, ...



## O‘RMONDA ZIYOFAT

Sher oshxona ochibdi  
O‘rmonda bugun,  
Yovvoyi va **xonaki**  
Hayvonlar uchun.

Pishar turli taomlar  
Qozonda “jaz-jaz”.  
Bo‘rivoy – o‘t qalovchi,  
Quyon – bosh oshpaz.



Yumronqoziq masalliq  
Tayyorlashda band.  
Ho'kiz bobo – qorovul,  
Echki – **ofitsiant**.

Oshxonaki – hashamdor,  
Ko'rinxmaydi **gard**.  
Eshikka xat yozilgan:  
“Tuyog’ingni art!”

Birin-ketin hayvonlar  
Keldi har yondan:  
Tog‘-u qishloq, yaylovdan  
Hamda o‘rmondan.

Xo‘randalar behisob,  
Zo‘rg‘a yetdi joy.  
Kuchuk suyak buyurdi,  
Maymun – achchiq choy.

Mushuk dedi: “Keltiring  
Sutga to‘g‘rab non.  
Yo‘qmi sizda mabodo  
Yangiroq sichqon?”

Tulkivoy der: “Bugun sal  
Tashqari sovuq.  
Menga – qaynoq kakao  
Va tirik tovuq”.



Qo'zi beda so'radi,  
Olmaxon – yong'oq.  
To'ng'iz esa buyurdi  
Chirik oshqovoq.

Talab qildi Buzoqcha  
**Kunjara**, somon.  
Yoqib tushdi **Kirpiga**  
**Chag'ir suvilon**.

Ishtahadan nolimay  
**Suli** kavshar Ot.  
Ikki lagan baqani  
Yedi Begemot.

"Menga hang... ham qarang!" deb  
Baqirdi Eshak.  
Sekingina dedi Fil:  
"Bir tonna xashak!"

Xo'p yayrashdi hayvonlar  
Bo'lib jamuljam.  
Faqatgina Toshbaqa  
Edi bunda kam.

Toshbaqa ham uzoqdan  
Ko'rindi, ana.  
Afsuski, u kelguncha  
Berkir oshxona.

*Anvar Obidjon*



1. Ayting-chi, yovvoyi va xonaki hayvonlarning qanday farqi bor?
2. Oshxonadagi hayvonlarning vazifasini ayting. Nima uchun ularga ushbu vazifalar berilgan deb o'ylaysiz?
3. Mehmonga qaysi hayvonlar keldi? Kim qaysi ovqatni buyurtma qildi?
4. Qaysi jonivor kechikdi? Nima uchun?
5. Ayting-chi, kechikkан jonivor vaqtida kelganida yeyish uchun nimani buyurtma qilgan bo'lar edi?
6. Siz she'rga yana qanday sarlavha qo'ygan bo'lar edingiz?



### 9. She'r matni aosida quyidagi jadvalni to'ldiring.



	Hayvonlarning nomlari	Qayerdan kelgan?	Ovqati
1	kuchuk	qishloq	suyak

### 10. Berilgan tushunchalarga mos keluvchi so'zlarni she'r matnidan topib, yozing.

**Namuna** uy hayvonlari – xonaki, ...

Tipratikan

Ovqat keltirib beruvchi xizmatchi

Chang, g'ubor

Ola-bula, kulrang

Chiqit, chiqindi

Yem uchun ekiladigan o'simlik

### 11. She'r matnidan qanday? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlar ni aniqlab, yozing.

**Namuna** qanday? – hashamdor, ...





## 12. Rasmlarga qarang, bug'doyning nonga aylanguncha bosib o'tgan yo'li haqida hikoya yozing.




## QIZIL SAYYORA



Marskezarlar haqida oldin ham eshitganmisiz? Ayting-chi, ular Marsda nima qilishadi?



“Mars – qizil sayyora” audiomatnini tinglang. Savollarga javob bering.



1. Nima uchun Mars sayyoralarining eng mashhuri?
2. Marsning hajmi, joylashish o'rni, atmosferasi haqida qanday ma'lumotlar berildi?
3. Qadimda Marsda suv havzalari bo'lganmi? Nega hozir sayyorada suv mavjud emas?
4. Marsni tarixda kimlar o'rgangan? Bu haqida so'zlab bering.
5. Nega Marsni “Qizil sayyora” deb ataymiz?



Bir bo'g'inda yonma-yon kelgan ikki xil undosh qatnashgan so'zlar qator undoshli so'zlardir. Masalan: g'isht, do'st, qirq, transport, daraxt.



## 1. Berilgan so‘zlar ichidan yuqoridaq qoidaga mos keluv-chilarini toping. Ularni bo‘g‘inlab ko‘chiring.

**Namuna** te-le-skop, ...

Quyosh, Mars, sayyora, chunki, kelajak, to‘rt, qo‘snni, raketa, qatnov, atmosfera, zamon, insoniyat, misrlik, ilk, teleskop, sath, asar, yo‘l, astronom.



1. Kelajakda odamlar Marsga uchib borishiga ishonasizmi? Sizningcha, bu qachon, qanday sodir bo‘ladi?
2. Odamlar Marsga yetib borganidan so‘ng qanday ishlarni amalga oshiradi deb o‘ylaysiz?
3. Boshqa sayyoralarga yetib borish uchun odamlarga birinchi navbatda nimalar kerak deb o‘ylaysiz?



**Dialogni partadoshingiz bilan birga o‘qing.**



- Yerdan gapiramiz. Mars, bizni eshityapsizmi?
- Yer, men aloqadaman, sizni yaxshi eshityapman!
- Juda yaxshi! Marsdagi ob-havo haqida ma’lumot bering.
- Hozir judayam sovuq, minus 80 daraja!
- Ehee, Antarktidadan ham sovuq-ku!
- Bundan tashqari, Marsning mavsumiy qum bo‘roni boshlangan. Bu yerdagi shamol Yerdagidan yuz marta kuchliroq.
- Unda ehtiyyot bo‘ling, qarorgohdan tashqariga chiqmang.
- Albatta. Aytgandek, zo‘r yangilik bor!

- Qanday?
- Issiqxonada biz ekkan loviya va kartoshka urug‘lari unib chiqdi!
- Qoyil, mana buni yangilik deyish mumkin!
- Ha, uch oydan so‘ng ilk hosilni yig‘ib olamiz.



Marsda loviya va kartoshka urug‘lari unib chiqishi nimasi bilan hayratlanarli? Sizningcha, olimlar bu urug‘larni qanday parvarish qiladi?



## 2. Berilgan so‘zlarni tartiblang va namunadagidek gaplar hosil qiling. Ularni daftaringizga ko‘chiring.

**Namuna** minus, ob-havo, 80, Marsdagi, juda, daraja, sovuq.

Marsdagi ob-havo juda sovuq, minus 80 daraja.


1. Antarktidagi, havo, haroratidan, Marsdagi, ob-havo, ham, sovuq.
2. Shamol, Marsdagi, necha, marta, kuchliroq, Yerdagidan.
3. Marsdagi, unib, issiqxonada, chiqdi, loviya, va, kartoshka, urug‘lari.



## QUYOSHNING BOLALARI

Qadim zamonda koinotning cheksiz kengliklarida **to‘qqizta** aka-uka sayyora bo‘lgan ekan. Ular: quvnoq Merkuriy, yoqimtoy Venera, beg‘ubor Yer, uylalganda darrov qizarib ketadigan Mars, shirinlikxo‘r Yupiter, ozg‘in bo‘lay deb hamisha halqa aylantirib yuradigan Saturn, yuvoshgina Uran, xayolparast Neptun va **Pluton** edi.

Sayyoralarning eng kichkinasi bo‘lgan Pluton juda chaqqon, tezkor hamda aqli edi. Zakovati, barcha ishni o‘z vaqtida bajarishi bilan hammani lol qoldirardi. Shuning uchun Pluton Quyoshga eng yaqin



joyda turar ekan. Biroq million yillar o'tib, Plutonda kibr degan illat paydo bo'libdi. U o'zini barchadan ustunman deb o'ylay boshlabdi. Ustiga-ustak, og'alarini kansitar, dilini og'ritar ekan.

Akalari yaxshi gap bilan Plutonni bu yo'ldan qaytarmoqchi bo'libdi. Ammo Pluton o'ziga shunchalik bino qo'ygan ediki, hatto ularni eshitishni ham istamabdi. Shunda Quyosh bobo Plutonni tarbiyalab qo'yish maqsadida poyga o'tkazishga qaror qilibdi. Qay bir sayyora poygada birinchi bo'lib kelsa, menga eng yaqin joyda turadi debdi. Poyga boshlanibdi. Kutilgandek, Pluton darrov hammadan o'zib keta boshlabdi. Biroq bu unga qiziq tuyulmabdi. Quvligi tutib: "Hammadan tezkor bo'lsam, o'zimni qiy nab nima qildim? Yaxshisi, bir chekkada o'zimni uxlaganga solib yotaman. Akalarim mendan o'zib ketganidan xursand bo'layotganda shart o'rnimidan turaman-u, barchani lol qoldirib, marra chizig'ini birinchi bo'lib kesib o'taman", – deb o'ylabdi.

Shu kuni marraga birinchi Merkuriy, ikkinchi Venera, so'ng Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun yetib kelibdi. Pluton esa hazil qilaman deb chindan ham uxbab qolgan edi.

Maqtanchoq Plutonning qilmishidan ranjigan Quyosh: "Endi aqling kirgunicha boshqa bolalar bilan yashaysan", deb kichkintoyni olis-larga uloqtirib yuboribdi. Shundan buyon Pluton akalarining safiga qaytishni orzu qilib yashar ekan.

**"Gulxan" jurnalidan**



1. Kibr deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun Plutonda kibr paydo bo'ldi?
3. Quyosh bobo nega musobaqa uyushtirmoqchi bo'ldi?
4. Plutonning mag'lub bo'lishiga asosiy sabab nima edi?



### 3. Maqollarni yozing, mazmunini muhokama qiling. Ularning qaysi biri siz o'qigan matn mazmuniga mos?

- A. Kuch birlikda.
- B. Kamtarga kamol, manmanga zavol.
- D. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l.

### 4. Berilgan gapdag'i ajratilgan bo'laklarga so'roq berib yozing.

**Namuna** *Pluton* (kim?) esa hazil qilaman deb chindan ham *uxlab qolgan edi* (nima qilgan edi?).


Akalari yaxshi gap bilan Plutonni bu yo'ldan **qaytarmoqchi bo'libdi**.



**"Quyoshning bolalari"** hikoyasidagi hayotiy haqiqat va to'qimalarni aniqlab, izoh bering.



### 5. Sayyoralarning nomini Quyoshga yaqinligi bo'yicha tartib bilan yozing.



**6. Berilgan so‘zlar yordamida har bir sayyoraga xos sifatlarni yozing. Ushbu so‘zlarga so‘roq bering.**

**Namuna** Venera – yoqimtoy (qanday?).

hazilkash	xayolparast	quvnoq	yuvoshgina
yoqimtoy	shirinlikxo‘r	uyatchan	
ozg‘in bo‘lishni orzu qiluvchi		chaqqon	

**7. Matn yordamida quyidagi so‘zlarni tekshiring, xatosini to‘g‘rilab, ko‘chiring.**

hayol	havotirlanmoq	o‘ylap
xursan	bilmli	



**8. Ushbu iboralarga mos rasmlarni aniqlang. Ularning izohini yozing. Rasmlarga mos bo‘lgan boshqa so‘z va iboralarni ayting.**



Dilini og‘ritmoq

Lol qolmoq

O‘ziga bino qo‘ymoq

**9. Quyidagi qoidaga mos keluvchi so‘zlarni matndan toping va yozing.**

**Namuna** darrov, ...



Tarkibida yonma-yon bir xil undoshlar kelgan so‘zlar qo‘shtirilgan. Masalan: quvvat, arra, amma, qattiq, chaqqon.



1. Kosmos haqida nimalarni bilasiz?
2. Sizningcha, qahramonni nima uchun Mittivoy deb atashgan? “Mitti” so‘zining ma’nosini bilasizmi?

## MITTIVOYNING KOSMOSGA UCHGANI VA ADASHIB, NOTANISH JOYGA BORIB QOLGANI



Ha, ishoning bu so‘zga,  
Men uchganman kosmosga.  
Raketamiz zo‘r edi,  
Judadam uchqur edi.  
Ko‘z uzmay derazadan  
Qarab ketsang – maza-da.  
Ko‘rinar yaqin-yiroq,  
Ertakdayin **hamma** yoq.  
Yulduzlar charaqlagan,  
Oy, Quyosh yaraqlagan.  
Saf tortib **sayyoralar**  
Birma-bir **ortda** qolar.  
Oldinda Somon yo‘li  
Yastanar **oppoq** bo‘lib.

“**Qars-qurs**” qilib gohi-goh  
Chaqib qo‘yardi chaqmoq.  
Yer ortda qoldi tamom,  
Uchishda etdik davom.  
Kelib qoldim qaylarga?  
**G‘irt** notanish joylarga.  
Shunda o‘yladim shoshib:  
“Ketdimmikan adashib?  
Uyga kech qolsam, doim  
Xavotir olar oyim”, –  
Deb qarasam shu joyda –  
Ketyapman tramvayda.  
Xayollarga botibman,  
Bekatimdan o‘tibman...

*Muxtor Xudoyqulov*



1. Mittivoy kosmosda nimalarni ko‘rdi?
2. Somon yo‘li haqida nimalarni bilasiz?
3. Haqiqatan ham Mittivoy kosmosga uchganmi?
4. Mittivoyning onasi nima uchun xavotir oladi? Siz bilan ham shunday holat bo‘ladimi?
5. Siz she’rga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?



**10. She'r matnida ajratib ko'rsatilgan so'zlarni qo'sh undoshli va qator undoshli so'zlarga bo'lib, yozing.**

Qo'sh undoshli so'zlar	Qator undoshli so'zlar
hamma	ort

**11. Ajratilgan so'zlarga so'roq bering va gaplarni ko'chirib yozing.**

*Biz uchishda davom etdik.*

*Uyga kech qolsam, oyim doim xavotir oladi.*



Gapning kim yoki nima haqida ekanini bildiradigan bo'lagi ega deb ataladi. Gapning egasi haqida nima deyilganini bildirgan bo'lak **kesim** deyiladi.



**12. Rasmlar asosida fantastik hikoya yozing. Ko'rsatmalardan foydalanishingiz mumkin.**

- ✓ hikoya boshlanmasi
- ✓ joy va qahramonlar tasviri
- ✓ voqeа
- ✓ xulosa

*Hikoya yozishdan oldin rasmlarda tasvirlangan voqealarni sinfda muhokama qiling.*





### Fantastik hikoya nima?

Aql ishonmaydigan, xayoliy, notabiiy voqealar haqida yozish fantastikadir. Masalan, “Sariq devni minib” asarida Hoshimjonning sehrli qalpoqcha topib olishi fantastik voqeadir. Yana O’rgimchak odam, Temir odam kabi fantastik qahramonlar ham bor.

## MATNLARDA QO'LLANGAN SO'ZLAR LUG'ATI

- Ajablanmoq** – hayron bo'lmoq.
- Aksari** – ko'pincha.
- Amal-taqal** – zo'rg'a, bazo'r.
- Anhor** – katta sug'orish kanali.
- Ariq** – ekin ekish va sug'orish uchun ekin maydonida tortilgan maxsus suv yo'li, jo'yak.
- Arka** – tepasi yarimdoira shaklida yasalgan darvoza, eshik, deraza kabi narsalar.
- Asar ham qolmaslik** – biror narsadan umuman hech narsa qolmasligi, butunlay yo'q bo'lib ketishi.
- Astronom** – osmon jismlari, koinot tuzilishini o'rganuvchi olim.
- Atmosfera** – Yer va boshqa ba'zi planetalar ni o'rab turgan gazsimon qobiq.
- Ayon** – aniq-ravshan.
- Azim** – ulkan, g'oyat katta.
- Bekat** – yo'lovchilarning biror transport turiga chiqishi va undan tushishi uchun belgilangan joy.
- Bepoyon** – oxiri, chegarasi yo'q, nihoyatda keng.
- Botmon** – og'irlik o'lchov birligi.
- Boylit** – mol-mulkning yig'indisi.
- Brom** – yoqimsiz hidga ega, qizg'ish-qo'ng'ir, suyuq modda.
- Bunyod** – barpo bo'lmoq, paydo bo'lmoq.
- Darhol** – tez, darrov.
- Daryo** – tabiiy o'zandan doimiy ravishda oqib turadigan katta suv.
- Dengiz** – okeanning quruqlikka tutashgan yoki quruqlikka yorib kirgan bo'lagi.
- E'tiroz** – biror narsa, taklif, ish-harakat va shu kabilarga qarshi fikr; norozilik, qarshilik.
- Erinmoq** – biror ishni bajarishni chin dildan xohlamaslik, qilgisi kelmay bajarish. Ba'zan erinish o'sha ishni umuman bajarmaslikka ham olib kelishi mumkin.
- Fastfud** – tez tayyor bo'ladigan ovqatlarning umumiyl nomi, lavash, hotdog, gamburgur kabi yeguliklar fastfud hisoblanadi.
- Filtr** – suyuqlik va gazlarni keraksiz aralashmalardan tozalash uchun xizmat qiladigan moslama.
- Ftor** – och sariq tusli, zaharli gaz.
- Gard** – chang; nuqson.
- Gardaniga tushmoq** – zimmasiga tushmoq.
- Gaz** – qadimgi uzunlik o'lchovi. Bir gaz 71 santimetrga to'g'ri keladi.
- Grelka** – sun'iy isitish moslamasi.
- Hamla qilmoq** – tashlanmoq, hujum qilmoq.
- Hayallamay** – ozgina vaqt o'tmasidan, kuttirmasdan, darrov.
- Hayqirmaq** – qattiq, shiddatli ovoz chiqarmoq.
- Hovuz** – suv saqlash uchun xizmat qiladigan, maxsus qazilgan chuqurlik.
- Illat** – narsalardagi buzuqlikni anglatadi, insonga nisbatan ishlataliganda yomon odatni ifodalaydi; tanadagi dard, kasallik; gunoh, ayb.
- Immunitet** – organizmning himoya tizimi.
- Imorat** – yashash, savdo qilish, davolash hamda shunga o'xhash maqsadlarda qurilgan bino. Har qanday qurilgan narsani imorat deyish mumkin.
- Iqtisod** – sarf-xarajatda tejamkorlik, tejab (asrab) qolish.
- Issiqxona** – o'simliklarni sovuq vaqtida parvarishlash uchun quriladigan issiq bino.
- Izg'irin** – sovuq shamol.
- Jamg'arma** – xarajatlardan orttirib, tejab-tergab to'plangan pul; mablag'.
- Jamuljam bo'lish** – to'planish, yig'ilish.
- Jannatmonand** – obod, go'zal.
- Javohir** – qimmatbaho boylik.
- Jinoyat** – davlat qonunlari va belgilangan tartibga xilof ish bilan shug'ullanish; jamoat uchun xavfli xatti-harakat.
- Jipslashmoq** – birlashmoq, ahil bo'lmoq.
- Jon saqlamoq** – og'ir, mushkul ahvoldan saqlanib qolmoq.
- Karantin** – yuqumli kasalliklar va qishloq xo'jalik zararkunandalar tarqalishining oldini olish uchun davlat tomonidan o'tkaziladigan sanitariya tadbirlari.
- Karvon** – uzoq joylarga yuk va odam tashiydigan, izma-iz yuradigan hayvonlar, aravalari va ularni boshqarib boradigan odamlar qatori.
- Kibr** – o'zini hammadan yuqori his etish; manmanlik.
- Kirpi** – tipratikan.
- Ko'chat** – urug'dan o'sib chiqqan nihol.
- Ko'l** – atrofi berk, chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasasi.
- Ko'Imak** – chuqur joyga to'planib qolgan yomg'ir suvi, halqob suv.
- Koinot** – biz kuzatishimiz mumkin bo'lgan, bizni o'rab turgan olam, yer-u osmon.

**Kosmos** – Yer atrofidagi fazo.

**Kunjara** – urug' yoki mag'izlarning yog'i siqib olingenidan keyingi qoldig'i.

**Lat yemoq** – yiqilish yoki boshqa ta'sirlardan shikastlanmoq.

**Machta** – kemaning qoq o'rtasiga o'rnatilgan, yelkan osish, kuzatish va signal berish uchun xizmat qiladigan ustun.

**Mahkum** – biror narsaga majbur qilingan, shu narsani qilishga hukm qilingan.

**Majlis** – yig'ilish.

**Mannun** – xursand, minnatdor.

**Mangu** – abadiy, oxiri yo'q.

**Manzil** – yetib borish mo'ljallangan joy.

**Marra** – musobaqada bosib o'tiladigan yo'ilning oxirgi nuqtasi.

**Mavsumiy** – ma'lum mavsumda bo'ladigan.

**Maxluq** – tirik mavjudotning umumiy nomi.

**Mayib** – shikastlanish orqali asl holatini yo'qotish.

**Me'mor** – binolarni qurish, bezatish ishlari bilan shug'ullanadigan odam.

**Metro** – yer ostiga qurilgan temir yo'l, unda elektr toki bilan yuradigan poyezdlar harakatlanadi, odamlar bir manzildan boshqa manzilga yetib olish uchun shu poyezdlardan foydalanadi.

**Mo'maygina** – yaxlit va salmoqli.

**Molekula** – moddaning barcha kimyoiy xos-salarini namoyon qiladigan eng kichik zarrachasi.

**Mollyuska** – chig'anoq ichida bo'ladigan umurtqasiz yumshoq tanli jonivor.

**Monument** – biror tarixiy shaxs yoki tarixda bo'lgan biror muhim voqeaga atab qurilgan haykal yoki bino.

**Moyjuvoz** – o'simlik urug'idan moy olinadigan qurilma.

**Muazzin** – masjidda azon aytib, namozga chaqiruvchi shaxs.

**Muzlatkich** – oziq-ovqat mahsulotlari yoki tez ayniydigan mahsulotlarni past temperaturada saqlaydigan qurilma.

**Navqiron** – yosh, kuch-quvvatga to'lgan.

**Noyob** – bebaho, kam uchraydigan.

**Ofitsiant** – xo'randalarga xizmat qiluvchi xodim.

**Okean** – Yer sharidagi eng katta suv havzasi.

**Olov** – yuqori haroratda yonib, nurlanib turgan gaz, alanga, o't.

**Oqsil** – tana uchun eng kerakli, muhim modda.

**Organizm** – tirik mavjudot.

**Orol** – hamma tomoni okean, dengiz,daryo yoki ko'l suvi bilan o'ralgan quruqlik.

**Ozon** – kislороднинг bir ko'rinishi, o'ziga xos hidi bo'lgan gaz.

**Paluba** – kemalarning taxta qoplangan yuzasi, sahni.

**Panalamoq** – yashirinmoq, berkitmoq.

**Pandemiya** – yuqumli kasallikning bir necha mamlakat yoki qit'ada yoppasiga tarqalishi.

**Peshtoq** – madrasa, masjid, maqbara kabi binolarning old tomondagi serhasham yuqori qismi.

**Piramida** – asosi ko'pburchak, yon yoqlari esa umumiy uchg'a ega bo'lgan uchburchaklardan iborat geometrik shakl. Ehrom.

**Poyga** – yugurish, o'zib ketish musobaqasi.

**Poyonsiz** – oxiri, cheti ko'rinxaymaydigan, chegarasi yo'q

**Pul** – bozordan yoki do'kondan biror narsa sotib olayotganda o'sha narsaning o'rniغا beriladigan to'lov.

**Qalbaki** – haqiqiy emas; soxta, yasama.

**Qarorgoh** – vaqtinchalik istiqomat qilish yoki qo'nish joyi.

**Qiron keltirmoq** – qirmoq, yo'q qilmoq.

**Qiyg'os** – hammasi birdaniga, avj bilan. Ko'proq gul va daraxtlarning gullashiga nisbatan ishlatalidi.

**Qo'riqxona** – davlat tomonidan ajratilgan, alohida ilmiy yoki madaniy ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy hudud.

**Qopqon** – tutish uchun qo'yiladigan moslama; tuzoq.

**Qoya** – qattiq, tub jinslardan iborat tik ko'tarilgan cho'qqi.

**Raketa** – reaktiv kuch ta'sirida harakatlanadigan uchuvchi apparat.

**Rangpar** – rangsiz.

**Sahro** – o'simligi juda kam, suvsiz, bepon dasht, cho'l.

**Sardor** – yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, ilg'or.

**Sarflamoq** – xarajat, chiqim qilmoq.

**Sath** – biror narsa-buyumning yoki joyining ustki, yuza tomoni.

**Sinchkov** – hech narsani e'tibordan qoldirmaydigan.

**Siylamoq** – hurmat qilmoq; qadriga yetmoq; mehmon qilmoq, qo'llab yubormoq.

**So'l** – chap.

**So'qqabosh** – hech kimi yo'q, yolg'iz.

**Sotix** – yer o'lchov birligi.  
**Sovitkich** – sovitib beradigan qurilma.  
**Suli** – g'alla o'simligi.  
**Suyukli** – yaxshi ko'rilgan, eng ko'p yoqtirilgan.  
**Tolqon qilmoq** – mayda-mayda qilmoq, tuymoq.  
**Tanob** – yerni o'lchashda ishlatiladigan atama, hozir yerni sotixa o'lchashadi, qadimda tanobda o'lchashgan. Hozir 6 sotix yer deyilsa, qadimda 6 tanob yer deyilgan.  
**Tasanno** – maqtov, olqish.  
**Tegirmon** – g'allani, donni yanchib un qiladigan moslama.  
**Tejamkor** – biror narsani tejab ishlatadigan kishi.  
**Tezkor** – tez ishlaydigan.  
**Timsol** – belgi, ramz.  
**Tirishqoq** – harakatchan.  
**Tiyrak** – serharakat; ziyrak, hushyor.  
**To'da** – to'plangan guruh.  
**To'fon** – shiddatli bo'ron, dovul.  
**To'g'on** – suv oqimini boshqarish uchun xizmat qiladigan qurilma.  
**To'lqin** – qattiq chayqalib turgan suv betidagi po'rtana.  
**Tomorqa** – hovli yonida joylashgan yer bo'lagi.  
**Toyg'anmoq** – sirg'anib ketmoq.  
**Tvorog** – sutdan tayyorlanadigan foydali mahsulot.  
**Vagon** – temiryo'llarda yo'lovchilar va yuklarni tashish uchun mo'ljallangan, ochiq yoki yopiq shakldagi g'ildirakli maxsus qurilma.  
**Vaksina** – yuqumli kasallikning oldini olish va davolashda ishlatiladigan emdori.  
**Virus** – ko'zga ko'rinas, kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar.  
**Vitamin** – inson va hayvon organizmi uchun zarur bo'lgan moddalar.  
**Xarsang** – katta tosh.  
**Xasis** – birovga narsa yoki pul bermaslikka intiladigan kishi; qizg'anchiq; ziqna.  
**Xazina** – yer yoki tabiat boyliklari, tabiiy boylik.

**Xirmonga bosmoq** – hosilni bir joyga to'plamoq, yig'moq.  
**Xitob qilmoq** – kuchli his-hayajon bilan qichqirmoq, birovga murojaat qilmoq.  
**Xlor** – yashil-sariq tusli, o'tkir hidli, zaharli, bo'g'uvchi gaz.  
**Xonaki** – uy-xonadonda boqiladigan, qo'lga o'rgatilgan.  
**Xo'rsinmoq** – biror tashvish sababli chuqur nafas olib, uni chiqarish, inson xo'rsinganda yelkalari yuqoriga ko'tarilib, pastga tushadi.  
**Yayov** – piyoda.  
**Yemak** – yesa, ichsa bo'ladigan har qanday narsa.  
**Yo'Idosh** – yo'lda birga boruvchi, hamroh.  
**Yo'lovchi** – yo'lda yoki biror transportda ketayotgan kishi.  
**Yo'nalish** – biror tomonga qarab yo'l olmoq; qaratilish.  
**Zarba bermoq** – shiddatli hujum bilan yakson qilmoq, yo'q qilmoq.  
**Zilol** – juda ham tiniq (ko'proq suvga nisbatan ishlatiladi).  
**Zina** – yuqoriga va pastga tushish qurilmasi.  
**Ziyofat** – mehmondorchilik, kimnidir mehmonga chaqirib, u bilan birga ovqatlanish.  
**O'g'rilik** – birovning narsasini so'roqsiz, bildirmay olish.  
**O'kirmoq** – kuchli ovoz chiqarmoq.  
**O'ika** – mamlakat.  
**G'alvir** – don elanadigan, siyrak to'rli katta elak.  
**Vunderkind** – iste'dodini juda kichik yoshdayoq ko'rsata boshlagan bola.  
**G'arq bo'lmoq** – cho'kmoq, suv qa'riga kirmoq.  
**O'yinqaroq** – vaqtini turli o'yinlar bilan o'tkazadigan, o'yinga berilgan.  
**Sho'ng'immoq** – suv ichiga botib ketmoq.  
**Shu tob** – shu vaqt.  
**Chek qo'ymoq** – tugatmoq.  
**Chimxo'r** – ovqatni tanlab, oz-oz yeydigan.  
**Cho'pchak** – topishmoq, jumboq.  
**COVID-19** – 2019-yilda aniqlanib, 2020-yilda butun dunyo bo'ylab tarqalgan, asosan nafas yo'llarini zararlovchi yuqumli kasallik nomi.

*O'quv nashri*

# ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI

*1-qism*

*Umumiy o'rta ta'lif muktabalarining  
3-sinfi uchun darslik*

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*  
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*  
Rassomlar: *Najotbek Jo'raboyev,*  
*Azizbek Jabbarov*  
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*  
*Musahhih Xurshidbek Ibrohimov*  
*Sahifalovchi-dizayner Alimardon Aqilov*

Bosishga 02.04.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84  $\frac{1}{8}$ .  
Arial Rounded garniturasi. Kegli 14. Ofset bosma.  
Shartli bosma tabog'i 16,74. Nashriyot-hisob tabog'i 14,30.  
Adadi — nusxa. Buyurtma \_\_\_\_.

## Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

Nº	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

**Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

<b>Yangi</b>	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
<b>Yaxshi</b>	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
<b>Qoniqarli</b>	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
<b>Qoniqarsiz</b>	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.